

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI  
«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

«Sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish» kafedrası

«TASDIQLAYMAN»

«Mashinasozlik  
texnologiyasi» fakulteti  
dekani  
L.Olimov

«\_\_»\_\_\_\_2016 y.

«HIMOYAGA QO'YILDI»

«SIChTE» kafedrası mudiri  
A.A.Abdullayev

«\_\_»\_\_\_\_2016 y.

«IQTISODIYOT» yo'nalishi talabasi

**Mamadaliyev Xurrambek Alixon o'g'li** ning

**«"Axmad toj Xaydar" xususiy korxonasida mahsulot sifatini yaxshilash  
imkoniyatlarini aniqlash va ishga solish mexanizmi» mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:** katta o'qituvchi: \_\_\_\_\_ **Z.Teshaboyeva**

**Andijon – 2015**

«TASDIQLAYMAN»  
Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ A.Abdullayev  
«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2015 y.

## **MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ**

Talaba Mamadaliyev Xurrambek Alixon o'g'li

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: «"Axmad toj Xaydar" xususiy korxonasida mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash va ishga solish mexanizmi»

1. « 23 » oktabr 2015 y. Kafedra majlisida ma'qullangan ( № 2-sonli bayonnoma).
2. Bitiruv ishini topshirish muddati: « 1 » \_\_\_\_\_ 06 \_\_\_\_\_ 2016 y.
3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar O'zb.Resp. qonunlari, VM qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, «Axmad toj Xaydar» xususiy korxonasi reja va hisobot ma'lumotlari, Internet ma'lumotlari.
4. Hisoblash tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati)

1. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimini rivojlantirishning nazariy - uslubiy asoslari

2. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

3. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish yo'llari

5. CHizma ishlar ro'yxati (nomi ko'rsatiladi)

1-chizma. Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar

2-chizma. «Axmad toj Xaydar» xususiy korxonasi boshqaruv strukturasi

1-jadval. «Axmad toj Xaydar» xususiy korxonasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

2-jadval. «Axmad toj Xaydar» xususiy korxonasida mahsulot sifati ko'rsatkichlari.

3-chizma. Korxonada mahsulot sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari

## 6.Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

| № | Bo'lim mavzusi                                                                                                        | Maslahatchi<br>o'qituvchi<br>F. I. Sh. | Imzo, sana           |                        |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|----------------------|------------------------|
|   |                                                                                                                       |                                        | Topshiriq<br>berildi | Topshiriq<br>bajarildi |
| 1 | Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimini rivojlantirishning nazariy -uslubiy asoslari               | Teshaboyeva Z.<br>Isroilova D.         | 17.12.2015y          |                        |
| 2 | «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili | Teshaboyeva Z.                         | 04.03.2016y          |                        |
| 3 | Korxonada mahsulot sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish yo'llari                                         | Teshaboyeva Z.                         | 20.04.2016y          |                        |

## 7.Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi

| № | Bitiruv malakaviy ishi bosqichlarining nomi                                                                                 | Bajarish<br>muddati<br>(sana) | Tekshiruvdan<br>o'tganlik<br>belgisi |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|--------------------------------------|
| 1 | Mahsulot sifati va uning korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati                                                | 22.01.2016y                   |                                      |
| 2 | Korxonalarda mahsulot sifatini yaxshilashga ta'sir etuvchi omillar                                                          | 05.02.2016y                   |                                      |
| 3 | Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish tizimining elementlari                                                            | 25.02.2016y                   |                                      |
| 4 | «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining tashkiliy- iqtisodiy tavsifi                                                       | 06.03.2016y                   |                                      |
| 5 | «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish va asosiy texnik –iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili | 28.03.2016y                   |                                      |
| 6 | Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimi tahlili                                                                       | 26.04.2016y                   |                                      |
| 7 | Korxonada mahsulot sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish yo'llari                                               | 06.05.2016y                   |                                      |
| 8 | Xulosa                                                                                                                      | 26.05.2016y                   |                                      |

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: Z.Teshaboyeva. \_\_\_\_\_  
(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: . X.Mamadaliyev \_\_\_\_\_  
(imzo)

Topshiriq berilgan sana: “ 16 ” 12 2015 yil

# M U N D A R I J A

**KIRISH**.....

**I bob. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimini rivojlantirishning nazariy -uslubiy asoslari** .....

1.1. Mahsulot sifati va uning korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati..

1.2. Korxonalarda mahsulot sifatini yaxshilashga ta'sir etuvchi omillar.....

1.3. Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish tizimining elementlari.....

**II bob. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili**.....

2.1. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining tashkiliy- iqtisodiy tavsifi.....

2.2. Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish va asosiy texnik –iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....

2.3. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimi tahlili.....

**III bob. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish yo'llari**.....

3.1. Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarini kuchaytirish yo'llari.....

3.2. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi.....

**Xulosa va takliflar**.....

**Foydalanilgan adabiyotlar**.....

**Ilovalar**

## Kirish

Mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omil – ularning sifati bo'lib, raqobatchilik muhiti shakllanayotgan sharoitlarda korxonalar faoliyatida asosiy e'tibor aynan shu omilga qaratilishi zarur. Mahsulotlar sifatini oshirish orqali korxonalar o'z ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashlari, raqobatbardoshligini oshirishlari, yangi bozorlarga chiqishlari, aholining turmush darajasini oshirishga hissa qo'shishlari, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan tqldirish va xorijga sotish evaziga mamlakat milliy valyutasini mustahkamlashga katta xissa qo'shishlari mumkin.

Ko'rinib turibdiki, mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshirish makroiqtisodiy darajada xam, mikroiqtisodiy darajada xam muhim ahamiyatga ega. Bu masala, ayniqsa xozirgi kunda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish davom etayotgan sharoitlarida, iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash va isloh qilish vazifalaridan kelib chiqqan xolda, yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov alohida to'xtalib :«...ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishni tezlashtirish»<sup>1</sup> zarurligini ko'rsatib o'tdilar.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan xolda xar bir korxona va tashkilot ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari sifatini ta'minlovchi tizim yaratishi talab etiladi. Ayniqsa, bu jarayon mamlakatimizda bugungi kunda katta e'tibor berilayotgan soha - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida mahsulotlar sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining boy salohiyatga ega soha – to'qimachilik tarmog'ida faoliyat yuritayotgan korxonalar safiga kiruvchi «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish – ushbu bitiruv-malakaviy ishning mavzusini tanlashda asos bo'ldi.

---

<sup>1</sup>I.A.Karimov, «Bosh maqsadimiz-mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir» «Xalq so'zi» № 13 16.01.2016y

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Zamonaviy sharoitlarda to'qimachilik sohasidagi kichik biznes korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimining tashkil etilishi, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, bu tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- mahsulot sifati va uning korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini o'rganish;
- korxonalarda mahsulot sifatini yaxshilashga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish tizimining elementlarini o'rganish;
- aniq korxona misolida mahsulotlar sifatini boshqarishni tashkil etish xolati va uning samaradorligini tahlil qilish;
- korxonada mahsulot sifatini boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- mazkur muammolarni yechimi bo'yicha samarali xulosa va takliflar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti** – Tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** – «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida mahsulot sifatini boshqarish tizimining tashkil etilishi xolati va uni takomillashtirish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, mahsulot sifatini boshqarish tizimini shakllantirishga oid vatanimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari hisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda ushbu muammolar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunlari, me'yoriy xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Qarorlari, Internet tarmog'idan olingan ma'lumotlar va

«Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining hisobot ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangilik elementlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun xalq etilishi zarur vazifalar aniq ko'rsatib o'tilgan;
- mahsulot sifatini boshqarish tizimining tarkibiy qismlari, sifatga ta'sir etuvchi omillar yoritib berilgan;
- korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid takliflar berilgan;
- mazkur muammoning yechimi bo'yicha aniq xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati** shundan iboratki, uning asosiy natijalaridan to'qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlar va xulosalar chiqarishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi quyidagicha:** kirish, asosiy mazmunini ifodalovchi 8 savol, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

## **I bob. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimini rivojlantirishning nazariy -uslubiy asoslari**

### **1.1. Mahsulot sifati va uning korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati**

Xalqaro raqobatning kuchayishi va texnologiyalarning jadal rivojlanishi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoni elementlarini boshqarish masalalarini butun majmuini yangidan ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu jarayon o'z ichiga ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot va xizmatlar sifatini ta'minlash masalalariga bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib yondashishni oladi.

Bugun jahon iqtisodiyotida globallashtirish va iqtisodiy aloqalarning integratsiyalashuvi jarayoni kechmoqda, ichki va tashqi xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashni ko'zda tutib olib boriladigan bozor sub'ektlarini rivojlantirish strategiyalarining oldiga qo'yiladigan talablar yanada jiddiy ko'rinish olmoqda, tovar va xizmatlar iste'mol qiymati tubdan o'zgarmoqda. Ana shunday sharoitlarda tovar va xizmatlar sifatini boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, sifatni boshqarish tovar va xizmatlar sifatini kerakli darajaga ko'tarishga erishish imkonini beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yechimini kutayotgan bir qator iqtisodiy-ijtimoiy o'tish davri muammolari mavjudki, ular bir vaqtning o'zida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar raqobatbardoshligini va, umuman, butun mamlakat iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni ta'minlash hamda iqtisodiyotda tuzilmaviy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni talab qiladi. Ana shunday muhitda sifatni boshqarish konseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Xalqaro standartlarga javob beradigan sifat joriy etish "sifat- narh" nisbatida jiddiy ijobiy natijalarga olib keladi, shuningdek, biznes jarayonlarini optimallashtirish, boshqaruv tizimini kompleks diagnostika qilish va takomillashtirish, xodimlarning ishga bo'lgan ishtiyoqini muntazam ravishda ta'minlash, operatsion risklarni boshqarish kabi boshqaruv tizimlari nazariyasi va amaliyotida sifat jihatidan yangicha usullar va yondoshuvlar ishlab chiqish va tadbiq etish imkonini beradi.

Mamlakatimiz sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish, mahsulot ishlab chiqarishda xarajatlarni minimal darajada kamaytirish, kompaniya imijining ijobiy tomonga o'zgarishiga

sabab bo'luvchi muhim omil bo'lib namoyon bo'ladi, shu bilan birga, mamlakatimiz korxonalarida sifatni boshqarish tizimining joriy etilishi ularning mahalliy va xorijiy iste'molchilar bilan yanad ko'proq shartnomalar tuzishga zamin yaratib, xalqaro tenderlarda ishtirok etishida o'ziga xos ustunlikni ta'minlaydi. Bularning barchasi korxonaga ichki va xalqaro bozorlarda o'z raqobat ustunligidan foydalanish imkonini berib, eksportni yanada diversifikasiyalashga erishish, postindustrial munosabatlar shakllanayotgan sharoitlarda korxonaning iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnik rivojlanish strategiyasi samaradorligini ta'minlaydi. Korxonalarda 9000 va 14000 seriyali ISO xalqaro standartini joriy etish xodimlardagi ishga bo'lgan ishtiyoqning yuqori darajaga olib chiqilishini, rahbarlar javobgarligining muayyan ish jarayoni uchun mas'ul bo'lgan xodimlar o'rtasida qayta taqsimlanishini, boshqaruv tizimining yuqori darajada moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

Korxonani boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi negizida korxonani sifat vositasida boshqarish tamoyili yotadi. Bu tamoyilda iste'molchi ehtiyoji birinchi qringa qqyiladi. Bu tamoyil korxonaga o'z faoliyatining barcha jabhalarida raqobat ustunligiga erishish imkonini beradi. Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi korxonalarida sifatni boshqarish tizimini joriy etishda muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sababi mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish o'rtasidagi zidlikdir. Bu muammoni faqatgina sifatni boshqarish yo'li bilan xal etish mumkin, zero, sifatni boshqarish tizimi mahsulot ishlab chiqarishning butun xayot uqiklini qamrab oladi.

Mahsulot sifati korxona faoliyatini rejalashtirish va uni aniqlashda qqlaniladigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, unda mehnatni tashkil qilish, ishlab chiqarishning jihozlanish darajasi, mutaxassislarning malakasi, boshqarish xolati ifodalanadi.

Korxona ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va boshqa ko'rsatkichlari mahsulot sifatining yaxshilanishi bilan uzviy tarzda bog'liqdir. Xozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan xolda mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eng yuqori texnik-iqtisodiy,

estetik va boshqa talablarga muvofiq bo'lishi, jahon bozorida raqobat qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Jahonda yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqish sharoitida xamma mamlakatlar o'z iqtisodiy tizimlarining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga e'tibor qaratishmoqda. Bunday murakkab vaziyatda istiqbolni belgilab olish, eskicha qarashlar qolipidan voz kechish talab etiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining 2015 yil yakunlariga bag'ishlangan «Bosh maqsadimiz-mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir» nomli ma'ruzasida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy soxadagi rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Xususan, iqtisodiyot soxasidagi muhim yo'nalishlardan biri, bu mamlakatimizning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyoti tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini ta'minlash, deb belgilandi. «Iqtisodiyotning barcha sohalarida raqobatbop va eksportbop tayyor mahsulotlarning turi va salmog'ini ko'paytirish, jadal xarakat kilib, jahon bozoridan o'zimizga munosib mustahkam o'qrin egallashimiz kerak. Buning uchun qayta ishlashning 3- 4 bosqichli tizimiga o'qtishimiz, raqobatga bardoshli mahsulot tayyorlash va eksport qilishni rag'batlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak»<sup>1</sup>.

Qo'yilgan vazifalarni samarali xal etish xar bir korxona rahbarlaridan o'z iqtisodiy tizimi barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini doimiy ravishda aniqlab, ishga solish zarurligini ko'rsatadi. Bozor munosabatlariga o'tish mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni iste'mol qiluvchilar orasidagi munosabatlarda prinsipial o'zgarishlarni taqozo qiladi: mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatiladi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov, «Bosh maqsadimiz-mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohotlarni,iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir», «Xalq so'zi», 16 yanvar, 2016 yil

Korxonalar o'rtasidagi munosabatlar mahsulot sifatini hisobga olgan xolda faqat xo'jalik hisobi asosida quriladi. Bunday sharoitlarda korxonalar o'rtasidagi qqshimcha bqg'inlar yqq bo'ladi, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona xaridor oldida iqtisodiy mas'uliyatlidir. «Xaridor xar doim xaq» prinsipiga ko'ra iste'molchi amaldagi qonunchilik yoki shartnoma shartlari bo'yicha sifatsiz mahsulotdan ko'rgan zararni qrnini qoplashga haqlidir. Bu narsa sifatli mahsulot ishlab chiqarishga qo'shimcha rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Samarali sifatni boshqarish tizimini yaratish muammolariga mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan muntazam ravishda katta e'tibor qaratib kelinayotgan bo'lsada, sifatni boshqarish tizimini takomillashtirib borish va sifatni boshqarishning tashkiliy chora tadbirlarini amalga oshirish hamda monitoringini yo'lga qqyishda muammolar saqlanib qolmoqda. Bularning barchasi mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarining ichki va jahon bozorida raqobatbardoshlikka erishishga yo'naltirilgan sifatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini baholash mavzusi dolzarbligini ko'rsatadi. Mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligiga erishishning asosiy omillaridan biri sifatida korxonalarda mahsulot sifatini oshirish va boshqarish masalalari ko'plab xorijlik olimlarning ishlarida yoritilgan va asoslab berilgan. Xususan, mahsulot sifatini belgilab beruvchi omillarni qrganish masalasi xorijlik olimlardan E.Bem-Baverk, L.Valbras, U.Jevons, D.Lokk, F.Krosbilarining ishlaridan qrin olgan.

Sifatni boshqarish muammolarini echishga E.Deming, Sh.Ishikava, J.Xarrington, V.Shuxart kabi olimlar salmoqli xissa qqshganlar. Korxonalarda sifatni boshqarish tizimi konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlari o'rtasidagi bog'liqliklar A.A.Bogatyryov, V.V.Boytssov, M.N.Selivanovlar, Uzbekistonlik olimlar S.S. G'ulomov, M.Q.Pardayev, YO.Abdullayev, Sh.N.Zaynutdinov, A.A.Sotvoldiyev va boshqa olimlar ishlarida qrganilgan.

“Sifat” tushunchasiga turli ta'riflar berilgan va ular mahsulot xususiyatlarining ko'plab jihatlarini qamrab olgan. Umumiy xolda, mahsulot sifati deganda uni iste'mol qilish xususiyatlarining majmui tushuniladi. Xar bir ishlab chiqariladigan mahsulot u yoki bu foydali xususiyatga ega bo'ladi, kishilarning ko'p tomonlama ehtiyojlaridan birontasini qondirish imkonini beradi. Ammo

mahsulotning foydaliligi darajasi, uning maqsadga muvofiqligi xar xil bo'lishi mumkin. Sifat zanjiri tushunchasi sifatning uch muhim jihatini aks ettiradi.

Birinchi bosqichda sifat korxonaning mahsulot va xizmatlarining korxona ichki texnik shartlarga mosligi darajasini ko'rsatadi.

Sifatning bu jihatini texnik shartlarga moslik sifati deyiladi. Ikkinchi bosqichda konstruksiya (tuzilish) sifati baholanadi. Mahsulot sifati uning konstrukuiyasiga, korxona tomonidan qo'yilgan texnik talablarga javob berishi mumkin, lekin konstrukuiyaning o'zi yuqori yoki past sifatda bo'lishi mumkin. Uchinchi bosqichda sifat tushunchasi korxonaning mahsulot va xizmatlarining iste'molchilarning real ehtiyojlarini kondirish darajasini ifodalaydi. Sifatning ushbu jihatini funkuiional sifat deyiladi. Aytish kerakki, mahsulot yoki xizmatlar ichki texnik shartlarga tqg'ri kelishi mumkin, uning konstrukuiyasi a'lo darajada bo'lishi mumkin, lekin bu mahsulot (xizmat) iste'molchilarning konkret ehtiyojlarini qondirishga to'g'ri kelmasligi mumkin.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sifatning xar uchchala jihatini xam muhim ahamiyatga ega va raqobatbardosh sifatga ega bo'lgan mahsulotlarni yaratish uchun bu yo'nalishlarning barchasiga e'tibor berish zarur.

Mahsulotning yuqori sifatli bo'lishi texnologik intizomga rioya qilish, ishchi va mutaxassislarining o'z kasblarini yaxshi egallaganligi, vazifasiga mas'ulitli yondoshishiga bog'liq. Uning yuqori sifatini ta'minlash uchun ishni izchillik bilan bajarish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ustirish zarurdir. Mahsulot sifatini oshirish uchun qat'iy kurash xar bir mehnat jamoasi a'zosining asosiy faoliyat mezonini bo'lib qolmog'i kerak.

Mahsulot sifatini yaxshilashdan maqsad iqtisodiy samaradorlikka erishilgan xolda eng kam ijtimoiy mehnat sarflab, iste'molchilar talabini yanada tularok kondirishdir. Mahsulotning sifatini yaxshilashda iqtisodiy samaradorlik uning asosiy mezonini bo'lishi zarur. Bu esa ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha jonli va buyumlashgan mehnatning umumiy miqdori tejalishidir. YUqori sifatli mahsulot tayyorlashda xom-ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, yoqilg'i, energiya sarfi normasi va joriy xarajatlar miqdori o'zgarishi mumkin.

Mahsulot sifatini yaxshilashdan olinadigan iqtisodiy samara, asosan, ekspluatatsiya xarajatlarini, shuningdek, sozlash ishlari sarfini, dastgoxlarning ishlamay bosh turish vaqti kamayishi va boshqa xarajatlarni koplash uchun sarflanadi. Mahsulotdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar: tannarx, ulgurji baho, mahsulot sifatini oshirish bo'yicha xarajatlar, mahsulot birligiga tqg'ri keladigan ekspluatatsiya xarajatlari yordamida ifoda etiladi.

Xar bir korxona va xo'jaliklar ishlab chiqarayotgan mahsulotlari sifatini oshirish orqali o'z faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga mamlakatning yalpi milliy mahsuloti va milliy daromadi ko'payishiga hissa kushadilar. Shuning bilan birga jamiyatning extiyojlarini qondirib, aholini turmush dajasini yuqorirok saviyaga kqtaradi.

Mahsulot sifatini oshirish natijasida mahsulot tayyorlovchilar, mahsulot iste'molchilari va mamlakat iqtisodiyoti katta samaraga ega buladi. Masalan,

1) mahsulot tayyorlovchilar uchun mahsulot sifatini oshirish quyidagi samaraga olib keladi:

- a) resurslardan unumli foydalanish;
- b) sifatsiz (brak) mahsulotlar ishlab chiqarmaslik;
- v) uni qayta ishlash, reklamatatsiyalardan keladigan zararlarni qisqartirish;
- g) yuqori sifatli mahsulotni sotishdan olinadigan daromadni ko'paytirish;
- d) iqtisodiy rag'batlantirish, yuqori sifatli mahsulot uchun musobaka ilg'orlarini rag'batlantirishning ma'naviy shakllarini ishlab chiqish.

2) Mahsulot iste'molchilari uchun:

- a) yuqori sifatli kamyob buyumlar bilan ta'minlash;
- b) xaridorga taklif kilinayotgan buyumlar turlarini kengaytirish va yangilash;
- v) ishlatish va foydalanish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish;
- g) aholining mehnati, turmush va dam olishiga yanada qulay sharoitlar yaratish.

3) milliy iqtisodiyot uchun:

- a) aholi ning o'sib borayotgan extiyojlarini yanada to'laroq qondirish;
- b) texnika samaradorligini oshirish;
- v) eksportni kengaytirish.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, korxonalar faoliyatining asosiy diqqat markazi xozirgi sharoitlarda ishlab chiqarishning miqdor ko'rsatkichlariga emas, balki sifat ko'rsatkichlariga qaratilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning birdan-bir yo'lidir. Ana shu yondoshish orqali milliy iqtisodiyotimizning barkarorlashuvi ta'minlanadi, mamlakat eksport salohiyati ortadi, jamiyat extiyojlari kondiriladi, milliy valyutamizning xarid quvvati ortadi. Bu yo'nalishda har bir iqtisodiy sub'ekt o'z faoliyatini qayta tashkil etishi zarur.

## **1.2. Korxonalarda mahsulot sifatini yaxshilashga ta'sir etuvchi omillar**

Mahsulot sifatini boshqarish tizimida boshqarish ob'ekti vazifasini turli xil omillar bajarib, bunda xom ashyo va materiallar sifatidan boshlab, mehnat va boshqaruv sifati, hamda standartlar va qilchov usullari kabi ishlab chiqarish va sotish jarayoni elementlari muhim ahamiyatga ega.

Iste'molchilarning dolzarb ehtiyojlarini qondirish va bozorning eng oldi tanlovi bo'lish imkoniyatini beruvchi mahsulotning xususiyatlari majmui sifatida sifat doimiy ravishda turli-tuman omillar ta'siri ostida bo'ladi. Ushbu omillar 1.2.1-rasmda ko'rsatilgan.

Sifatni ta'minlash va boshqarish tizimini tashkil etishning birinchi bosqichi-maqсадlarni aniqlab olishdir. Bunda erishish zarur bo'lgan mqljallar tqg'ri belgilab olinishi zarur. Shu sababli mahsulot sifatini tashkil etuvchilar va ularning ta'sirini qrganish muhimdir.

Mahsulot sifati, uni tashkil etuvchi buyum va materiallarning sifatiga bog'liq. Agar mahsulot mashinasozlik buyumlaridan tashkil topgan bo'lsa, mahsulotning sifatini belgilovchi, uning ayrim buyumlarining hamda birxillik, o'zaro almashuvchanlik va boshqa shunday xossalarning majmuasidan tashkil topadi. Masalan, avtomobilning sifati, uni tashkil etuvchi dvigatelning, shpindellarning, bolt va gaykalarining, g'ildirak va undagi rezina kabilarning sifatiga bog'liq. Trikotaj mahsulotlarining sifati ular tq qiladigan ipning qalinligi, tq qilish zichligi, mahsulotning gigroskopik xususiyatlari, o'z birlamchi shaklini yqqotmaslik xususiyatlari kabilarga bog'liq.

Mahsulot belgisi deganda mahsulotning har qanday xossalari va holatlarining miqdoriy va sifat tavsiflari tushuniladi. Sifat belgisiga materialning rangi, buyumning shakli, detalning sathida himoya va bezak uchun ma'lum qoplamalarning bo'lishi, prokatning yon tomoni (burchak, tavr, shveller va shunga qxshashlar), mahsulot detallarining biriktirish usullari (payvandlash, yopishtirish, parchinlash va shunga qxshashlar), sozlash usullari (qqlda, yarim avtomatik, avtomatik va shunga o'xshashlar) kiradi.

Sifat belgilari orasida mahsulot sifatini boshqarishda katta ahamiyatga ega bo'lgan statistik nazoratda qullanuvchi muqobil belgisi bo'lib, faqatgina ikkita bir – birini inkor qiluvchi imkoniyatlari bo'lishi mumkin. Masalan, buyumlarda yaroqsizlikning borligi yoki yo'qligi, detallarda ximoya katlami borligi yoki yqqiligi va shunga qxshashlar.

Mahsulotning miqdoriy belgisi uning parametridir. Mahsulot sifati o'zining ko'rsatkich alomati bilan ifodalanadi.

Mahsulot sifati, uning texnikaviy-iqtisodiy darajasini baholash uchun qator ko'rsatkichlar kullaniladi. Bu ko'rsatkichlar mahsulotning xususiyati va uning inson uchun qaysi maqsadda foydalanishi bilan bir-birlaridan farqlanadi.

Sifat ko'rsatkichlari quyidagi asosiy talablarga javob berishlari lozim:

- Turg'unligi;
- Rejali asosda ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga yordam berishi;
- Fan va texnika yutuqlarini inobatga olinishi;
- Muayyan vazifasiga ko'ra ma'lum ehtiyojlarni qondirishga layoqatliligi.

Vazifaviy ko'rsatkichlar mahsulot xossalarini tavsiflaydi, ularni asosiy vazifalarni belgilaydi, mahsulotni qqlash sohasini aniqlaydi. Mashina va asbobsozlik, elektrotexnika va boshqa buyumlar uchun bu ko'rsatkichlar buyum tarafidan bajariladigan foydali ishni tavsiflaydi.

Turli xil konveyerlar uchun vazifaviy ko'rsatkichlar, unumdorlik, yuk uzatish masofasi va balandligi; qlchash asboblarida – aniqlik ko'rsatkichlari, qlchash chegarasi va shunga qxshashlarni tashkil etadi.

Tarkib va tuzilish ko'rsatkichlari mahsulotdagi kimyoviy elementlarni yoki guruxli tuzilishlar miqdorini ifodalaydi.

Tarkib va tuzilish ko'rsatkichlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Pqlatning tarkibiy komponentlarini massa ulushlari;
- Kislotalardagi turli tarkiblarining konqentraqiyasi;
- Koksdaqi oltingugurtning, kulning massa ulushi;
- Oziq – ovqat va boshqa mahsulotlardagi qand, tuzlarning massa ulushlari kiradi.

Xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i va elektr quvvatlarini tejab foydalaniladigan ko'rsatkichlari buyumning xossalarini tavsiflaydi va uning texnikaviy takomillanish darajasini yoki ular tomonidan iste'mol qilinayotgan xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i va elektr quvvatlar me'yorini ifodalaydi.

Buyumlarni tayyorlashda va ishlatishda shunday ko'rsatkichlarga xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i va elektr quvvatini asosiy turlarining solishtirma sarflanishi (sifat ko'rsatkichining asosiy qilchovi); moddiy resurslardan foydalanish koeffitsienti, ya'ni foydali sarflanishiga nisbati tushuniladi, foydali ish koeffitsienti va shunga o'xshashlar kiradi.

Mahsulotlarning inson organizmi uchun foydaliligi darajasini baholash quyidagicha:

- Mahsulotning yagona sifati;
- Mahsulotning kompleks xususiyatlari;
- Mahsulotning umumiy ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Masalan, oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida turli ozuqa kislotalari yoki konserva sanoatida tayyorlangan mahsulotlarda suv moddasining miqdori, mashinasozlik sanoatida pulatning mustahkamligi, uskunaning texnik jihatlarining aniqligi, tqqimachilik mahsulotlarida matoning tqqish tekisligi, ipning uzilishlari soni kabi xususiyatlar mahsulotlarning fakat yagona sifatini aniqlaydi.

Yagona sifatdan tashqari mahsulotning kompleks xususiyat sifatleri ham baholanadi. Mahsulotning kompleks xususiyati sifatleri uning bir necha turlarini tavsiflab beradi. Masalan, mahsulotning navi: oliy, I, II navlarga bulinadi.

Umumiy ko'rsatkichlarga korxonada tayyorlangan mahsulotning boshqa mahsulotlarga nisbatan salmog' og'irligi va boshqalar kiradi.

Mahsulot sifatini oshirish bo'yicha topshiriq va tadbirlar barcha korxonalar va birlashmalar xo'jalik faoliyati yillik rejalarining tarkibiy qismiga kiradi. Birlashma va korxonalar tomonidan oliy sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishning usish sur'atlari yoki belgilangan boshqa ko'rsatkichlar yillar bo'yicha taqsimlanib, biznes-rejalari va strategik rejalarida tasdiqlanadi. Mahsulot sifatini rejalashtirishda iste'molchilar reklamauiyalari (e'tirozlari) asosida sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarish tufayli yuz beruvchi yuqotishlar tankidiy munosabat asosida tahlil

kilinadi. Yo'l kuyilgan xatolarning sabablari va aybdorlar aniqlanib, yuqoridagi nuksonlar yukotiladi. O'z obruyini qadrlaydigan korxona jamoasi e'tirozlarni kutib utirmay, Mahsulot iste'molchilari Bilan aloka urnatib, ularning sifatga bergan baholarini maslaxat va istaklarini inobatga olgan xolda rejalarni ishlab chikadilar. Mahsulot sifatini oshirish uchun korxona barcha tadbirlarni e'tiborga olgan reja tuzadi. Chunki mahsulot sifati korxona faoliyatining barcha texnikaviy – iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan mustahkam bog'liqdir.

Sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun tegishli texnik tadbirlar zarurdir, ammo xar qanday eng mukammal texnika va texnologiya xam vaqt qtishi bilan dastlabki aniqlik qobiliyatini (xususiyatini) yukotadi. Shuning uchun xam korxonalarda uskunalarning aniqlik qobiliyatini ko'rsatuvchi laboratoriya tekshiruvlari va boshqa nazorat tizimini qratish, uni tartibli ravishda davlat standart nazoratidan qtkazib turish, eskirgan mashina va texnologiya yo'llarini yangisi bilan almashtirib turish talab etiladi. Ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida tayyor mahsulotning sifati ko'p jihatdan ularning saqlanishi bo'yicha samarali tadbirlarga bog'liq. Bunda xom-ashyo, materiallar va ularni qrash, joylash, tashish kata ahamiyatga ega. Qator korxonalarda texnologik intizomni buzilishi tufayli sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishga yo'l kuyiladi. Ularning sababi standartdan, texnik shartlardan yoki boshqa me'yorlardan cheklanish bilan mahsulot ishlab chiqarish va boshqa sabablar – texnologik intizomni qqpul buzishdir. Sifatsiz mahsulot tayyorlagani yoki moddiy boylikni ehtiyotsizlik bilan nobud qilganligi uchun korxona ma'muriyati uch oy muddatgacha ishchining malaka razryadini pasaytirish xuquqiga ega.

Mahsulot sifati, ya'ni uning iste'molchilarning konkret talablarini qondira olish darajasi juda ko'p omillar ta'siri ostida shakllanadi.

Birinchi navbatda mahsulotlar sifati ular tayyorlanadigan xom-ashyo va butlovchi qismlar sifatiga bevosita bog'liq. Shu sababli, korxonalar qabul qilinayotgan xom-ashyo va materiallar sifatini qat'iy nazorat qilishlari talab kilinadi.

Mahsulotlar sifati jihatlariga: tarkibi, tuzilishi, chidamliligi, qlchamlari, xavfsizligi va boshqalarga qpyilgan umumiy talablar kirib, standartlar darajasi xam


ularning raqobatbardoshligini oshirishning zarur omilidir. Standartlar va texnik shartlar fan-texnika taraqqiyotining yutuklari va ilg'or tajribalarni hisobga olgan xolda qayta ko'rib turilishi muhimdir.

Mahsulot sifati ko'p jihatdan ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi va usullariga xam bog'liq. Ommaviy, seriyalab va donalab ishlab chiqarishda qullaniladigan oqimli, partiyalab va donalab ishlab chiqarish usullari buyumlarga ishlov berish, ixtisoslashtirilgan asbob-uskunalaridan foydalanish, mahsulotlar qismlarini standartlashtirish va unifikatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi orqali tayyor mahsulotning sifat jihatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, mahsulot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omil – bu ishlab chiqarish texnologiyasi va texnika darajasi. Ilg'or texnika va texnologiya mahsulot sifatini oshirish bilan birga mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi. Bu narsa mahsulot tannarxini pasaytirish hisobiga narxlarni tushirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Xar qanday ilg'or texnika va texnologiya xam insonlar ishtirokisiz mahsulot sifatini ta'minlab bera olmaydi. Ishlab chiqarishning texnologik jarayoni intizomiga rioya qilish, o'z vaqtida zaruriy jarayonlarni amalga oshirish, uskunalar xolatini doimiy kuzatib borish sifatni ta'minlashda ishlovchilardan malaka, mas'uliyat va bilim talab etadi.

YUqori malakali ishchi-xodimlar tayyorlaydigan mahsulot va xizmatlar past malakali ishchilar natijalaridan farq kiladi. Shu sababli, xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish zarur.




1.2.1-rasm. Mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Sifat halqasi deb ataluvchi tushuncha mahsulotning butun hayotiy davrini o'z ichiga oluvchi (to'liq) mujassamlashgan faoliyatdir (1.2.2 - rasm).

Sifat **halqasida** xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni saklash va tashish talablariga javob berish katta ahamiyatga ega.

Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimining xolati, nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish, xodimlarni sifatli mahsulot ishlab chiqarishga rag'batlantirish kabi kuplab omillar mahsulot sifatining zaruriy jihatlarini ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi.

Sifatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga samarali ta'sir ko'rsatish – sifatni boshqarish tizimining vazifasi bo'lib, o'z ichiga mehnat sifati, ish sifati va mahsulot sifati kabi kategoriyalarni olishi zarurdir.



1.2. 2– rasm. Mahsulot sifatini shakllantiruvchi va ta'minlovchi bosqichlar («Sifat halqasi»).

### **1.3. Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish tizimining elementlari**

«Boshqarish» iborasini mahsulot sifatiga oid qqlaganda, mahsulot sifatini doimiy nazorat qilish, uni belgilovchi shartlar va omillarga maqsadga muvofik ta'sir etish yo'llari bilan mahsulot sifatini loyixalashtirish, ishlab chiqarish va foydalanishda uning zarur darajada qrnatilishini, ta'minlanishini va saqlanishini tushunish zarur.

Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish operaiiyalari injener-texnik, tashkiliy-texnologik, nazorat, transport, ombor va boshqa jarayonlarning o'zaro bog'liqligi majmuasini tashkil etuvchi tartib doirasida olib boriladi.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operaiiyalardan iboratdir: mahsulot sifati darajasini belgilash, mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar xamda ishlab chiqarish jarayoni xolati tqg'ri sidagi axborotlarni yigish va ularni qrganish; mahsulot sifatini boshqarish tqg'risida qaror qabul qilish va ob'ektga ta'sir ko'rsatishga tayyorlanish, boshqaruv buyruqlarini berish; boshqarish natijasida mahsulot sifatining o'zgarishi xakidagi axborotlarni yig'ish va tahlil qilish.

Sifatni ta'minlash yo'lidagi birinchi kadam bo'lib, maqsadlarni aniqlash hisoblanadi. Bu strategik qadam o'z ichiga ehtiyojlarni aniqlash va bu extiyojlarni kondirishga mqljallangan mahsulot parametrlarini ishlab chiqishni oladi. Bunda sifat standartlarini yozma shaklda ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Korxonalarda sifat uchun javobgarlik odatda sifat nazorati bo'limi deb ataluvchi aloxida bo'limga yuklatilgan bo'lib, bu yondoshish qisman nazoratning mustakilligi prinsipiga asoslanadi, ya'ni sifatni baholash vakolatlari ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan bo'linmada mujassamlashgan.

Xozirgi kunda ilg'or tajribalar bu masalaga yangicha yondoshishni majbur etmokda. Masalan, YAponiyada, sifatni ta'minlash bo'yicha javobgarlikning ko'p qismi an'anaviy xolda ishlab chiqarishdagi ishchilarga yuklatilgan. Sifatni ta'minlash masalalari bo'yicha tayyorgarlikni yaponlar ishlab chiqarishdagi ishchilarni professional tayyorlash dasturlariga kiritganlar va ishchilarga o'z ishi sifatini nazorat qilishni yuklaganlar.

Sifat nazorati ishida uni ta'minlashning umumiy rejasi ishlab chiqilgandan keyingi kadam bo'lib sifatni qalchashni tashkil etish hisoblanadi. Sifat albatta qalchanishi mumkin bo'lishi kerak.

Tashkilot faoliyatining yakuniy muvaffaqiyati funktsional sifat va konstruktsiya sifatiga karamasdan, ishlab chiqarishni boshqaruvchilar ko'proq sifatni texnik shartlarga mosligini ta'minlashga e'tibor qiladilar.

Yakuniy mahsulotni tayyorlashda faqatgina bir korxona ishchi-xodimlari emas, balki xom-ashyo, materiallar va butlovchi qismlar etkazib beruvchi xamkor korxonalar jamoalari xam qatnashadilar.

Bunday sharoitlarda mahsulotning yuqori sifatini barcha omillarni kompleks hisobga olish va qayilgan masalaga sistemali yondoshish asosida ta'minlash mumkin.

Ushbu talablarga **Mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi** javob beradi. U mahsulotni loyixalashtirish, tayyorlash, ishlab chiqarish va foydalanishda zarur sifat darajasini ta'minlash va ushlab turish uchun amalga oshiriladigan choratadbirlar, usullar xamda vositalarni uz ichiga oladi.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimi deganda boshqarish idoralari va boshqariluvchi ob'ektlarning mahsulot sifatini boshqarishda moddiy - texnika va axborot vositalari yordamida o'zaro bog'lanishning majmui tushuniladi.

Shuning uchun bu tizim o'zaro bog'langan mahsulot sifatini boshqarishni ta'minlaydigan tashkiliy, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarning yig'indisi sifatida ko'zda tutilgan bo'lmoqligi lozim. Boshqarishning asosiy maqsadi esa mahsulot sifatini kerakli darajaga erishilishini ta'minlash hisoblanadi.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimi o'z tarkibiga inson jamoalarini, texnikaviy qurilmalarni, moddiy vositalarni va kuchli axborot oqimini oladi. Mahsulot sifatini boshqarish o'zida quyidagi boshqarish davrining umumlashgan elementlarini mujassamlashtiradi:

- Oldindan aytib berish va rejalashtirish;
- Ishlarni tashkil qilish;
- O'zaro muvofiqlashtirish va tartibga solish;

- Faol harakatga keltirish va rag'batlantirish;
- Nazorat, hisob – kitob va tahlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimining tarkibiy qismi bo'lib, berilgan darajali sifatga ega mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy-texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarni yagona majmuaga birlashtiradi. Tizimning tashkiliy-texnik asosi bo'lib standartlashtirish xizmat kiladi.

Sifatni ta'minlashda standartlashtirish katta ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagi printsiplarga ega:

- optimallik;
- dinamiklik;
- progressivlik;
- komplekslilik;
- majburiylik (direktivlik).

Bu printsiplarga ega bo'lgan barcha standartlar korxona va tashkilotlar uchun qonun kuchiga ega. Standartlarga amal qilmaslik qonun bo'yicha ta'kid etiladi.

Standartlar amal qilish qqlami, darajasi va soxasiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

- GOST lar – davlat standartlari;
- OST lar – tarmoq tandartlari;
- STP lar – korxona standartlari;
- TU lar – texnik shartlar;
- DU lar – shartnomaviy shartlar.

YUqoridagilar bizning respublikamizda qrnatilgan standartlar tizimidir. Xalqaro talablar umumjahon **ISO 9000 sifat standartlari tizimida** mujassamlashgan.

Standartlarni ishlab chiqish tqrt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Standartlarni ishlab chiqishda texnikaviy talablarni ishlab chiqish va uni muxokamadan qtkazish.
2. Standart loyixasini (birinchi nusxasi) ishlab tayyorlab taqrizga yuborish.

3. Olingan taqrizlarni ishlab chiqish, oxirgi nusxasini tayyorlash va tasdiq uchun yuborish.
4. Standartlarni davlat rqyxatidan qtkazish va tasdiqlash.

Standartlashtirish metrologiya va sertifikatlaylash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat markazi rqyxatidan qtkazilib, uning texnik shartlari belgilab qqyiladi.

Texnik shartlar shartli belgisining 3-4 qismlari standart ishlab chiqaruvchi korxona qaysi tarmoq va uning kaysi bo'limiga karashini ko'rsatadi. OST shartli belgisining 3- qismi standartni tasdiklagan tarmoq noini bildiradi. Xom-ashyolar sifati, tayyor Mahsulotlarga bo'lgan iste'molchilar talablarining usishi, ularni sinash uslublari o'zgarishlarini e'tiborga olgan xolda, standartlar vaqt-vaqti bilan qayta ko'rib, o'zgartirilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sifatiga, insonlar hayoti, sog'ligi va mulki xavfsizligini, atrof-muhitni muxofaza qilishni ta'minlovchi majburiy talablar, xavfsizlik texnikasiga va ishlab chiqarish sanitariyasiga majburiy talablar;

- Mahsulotni o'zaro tqldirish va qrnini bosishiga majburiy talablar;

- Mahsulot sifatini nazorat qilish usullariga majburiy talablar;

- Mahsulotlarning parametrik qatorlari va namunaviy konstrukciyalash;

- Mahsulotning asosiy iste'mol va foydalanish xususiyatlariga majburiy talablar, mahsulotlarni kadoklash, markirovkalash, tashish va saqlash, shuningdek, yqq qilishga (utilizaciya) talablar;

- Mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanishda texnik birlikni ta'minlovchi ko'rsatmalar, mahsulot sifatini ta'minlash qoidalari, barcha turdagi resurslarni saqlash va oqilona foydalanishga talablar, atamalar, tushunchalar va belgilar, metrologik va boshqa umumtexnik qoidalar va me'yorlar.

Mahsulot sifatini kompleks boshqarish tizimi tuzilishi, tarkibi, mikyosi va vazifalari korxonaning xajmi, ixtisoslashtirish va kooperaciyalash darajasi, tayyorlanayotgan mahsulot xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu tizim umumiy

maqsadga va sifatni boshqarishning kup pogonali tuzilishiga ega (birlashma, korxona, bo'lim, qex, uchastka, brigada).

Sifatni boshqarish o'z ichiga mahsulotni attestatsiyadan qtkazish, ishlovchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, mahsulotlar sifatini nazorat qilishni tashkil etish shva nazorat usullarini oladi.

Sifatni attestatsiya qilish mahsulotlarning texnik darajasi va sifatini oshirishga, texnologiyani takomillashtirishga, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish va mahsulotni yangilashga yordam beradi.

Davlat attestatsiya xay'ati mahsulot sifati ko'rsatkichlari, sifatni ulchash usullari, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, Davlat standarti organi xulosasi va asosiy iste'molchilarning bahosini hisobga olib, mahsulotga tegishli sifat kategoriyasini belgilaydi.

Mahsulotning sifati korxonada shakllanadi va birini navbatda uni tashkil etuvchi elementlari sifatiga bog'liq. Shu sababli mahsulotning sifatini zavod ichki attestatsiyasiga katta ahamiyat beriladi. Bu ishlarga maxsus tuzilgan sifat bo'yicha komissiyalar rahbarlik kiladilar. Zavoddagi attestatsiya davomida sifatli mahsulot ishlab chiqarishda alohida qrnak ko'rsatgan xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish uchun asos yaratiladi.

Mahsulotning sifatini nazorat qilish ishlarini boshlanish muddatidan oldin, ishlab chiqarish jarayoni davomida va ishlar yakunlangandan keyin amalga oshiriladi.

Sifatni statistik nazorati usullarining maqsadi- mahsulot sifatining tasodifiy o'zgarishlarini yqqotishdir. Bunday o'zgarishlar aniq sabablardan kelib chikadi va bu sabablarni aniqlash xamda bartaraf etish lozim.

Katta partiyadagi mahsulotlarni qabul qilishda ular ichidan ma'lum cheklangan miqdorga namunalar tanlab olinib, sinovlar qtkaziladi. Bu usul tanlanma nazorat deyiladi va odatda ta'minotchilardan butlovchi qismlar va mahsulotlar partiyasini kabul qilishda qqlaniladi. Tanlanma nazorat nazorat uchun sarflarni qisqartirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish davomida amalga oshiriladigan joriy nazorat uchun texnologik jarayon nazorati kartasi kullaniladi. Uning maqsadi- ishlab chiqarish

jarayoni kachon «nazorat ostidan chikib ketganligi» va sifatsiz mahsulot chiqq boshlaganini aniqlashdan iborat. Bunda jarayonni tartibga solish uchun zaruriy choralar ko'rish mumkin.

Bunday nazorat shaklida kun davomida xoxlagan paytlarda jarayondan uchta tanlov namunalari olinadi. Bunda agar beshta ketma-ket namunalardan uchasi yo'l qqqilishi mumkin bo'lgan og'ishlar chegarasidan chiqib ketgan bo'lsa, jarayon faoliyati buzilgan hisoblanadi. Bu xollarda operativ tarzda zarur chora-tadbirlar amalga oshirilib, sifat ta'minlanadi.

YAkuniy nazorat yuqorida aytib qtilganiday, mahsulot (xizmat)lar tayyor bo'lgandan sung sifat nazorati bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda mahsulotlarning fizik, kimyoviy, estetik va boshqa jihatlari qrnatilgan standartlarga va texnik shartlarga mosligi tekshirilib, yakuniy xulosalar chiqariladi.

Sifatni nazorat qilish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1) Nazorat qtkazilish joyiga qarab «turg'un» (tayyorlangan buyum yoki bajarilgan ishni maxsus nazorat qilish joyida tekshirish) va «siljuvchan» (texnologik jarayon boshqarilayotgan ish joyida vaqt-vaqti bilan tekshirish) turlarga bo'linadi.

2) Tekshiriluvchi manbalarining qamralishi bo'yicha «yoppa nazorat» (bunda barcha buyumlar va ularning qismlari tekshiriladi), «tanlanma nazorat» va nuqsonlarni bartaraf qilishda eng samarali hisoblangan «statistik nazorat» qtkaziladi. Bu nazorat tanlash usuliga asoslangan bo'lib, ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaga tayangandir.

3) Texnologik jarayonlarni qamrash bo'yicha «jarayonma-jarayon» (navbatdagi bajariladigan jarayonning sifati oldingisiga bog'liq bo'lgan xar bir jarayondan sqng uning bajarilishi tekshiriladi). Sodda jarayonlarning bir nechitasi bajarilgandan sqng yoki texnologik jarayonlar uzluksiz bajarilsa, «umumlashgan» nazoratlar qllaniladi.

4) Texnikaviy nazorat «sirtqi» yoki mahsulotning sirtqi ko'rinishini tekshirish, «geometrik» - buyumning qlchamlarini tekshirish va «tarkibiy», ya'ni uning tarkibini, qattiqligini va boshqa xususiyatlarini tekshirish yo'llari bilan olib boriladi.

5) Nazoratni amalga oshirish jarayonida qullaniladigan qlchov vositalariga qarab:

- mexanizatsiyalashtirilgan asboblari va qlchov vositalari yordamida tekshirish;
- qisman avtomatlashtirilgan tekshiruv asboblari va vositalari yordamida tekshirish;
- avtomatlashtirilgan qlchov asboblari va vositalari yordamida tekshirish;
- organoleptik usulda, ya'ni buyumni ko'rib, ushlab ko'rish yordamida tekshirish orqali sifat nazorat qilinadi.

Nazorat vazifasini jarayonda bevosita ishlovchilarga ish joyi spetsifikatsiyasiga kiritish va ularda sifatni ta'minlashda mas'uliyat hissini va zaruriy hujjatlar asoslarini yaratish, sifat uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirishdan keng foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Bunda ishlovchilarni sifat yoki miqdor ko'rsatkichlari uchun rag'batlantiribgina qolmay, ularni mujassamlantirilgan ko'rsatkichlar uchun xam rag'batlantirishni talab etiladi. Texnologik jarayonlar apparatlar yordamida olib boriladigan korxonalarda xamda mahsulot sifati asosan texnologik jarayonlarga rioya qilishga bog'liq bo'lgan bo'limlarda xodimlarning mukofotlanishi ularning texnologik ko'rsatkichlarga rioya qilishlariga va mahsulotning sifatiga qarab olib borilishi lozim.

Mahsulot sifatini boshqarishni yanada takomillashtirish zaruriyati yuqori samarali mehnatni motivlashtirish, korxonada ilg'or tashkilot madaniyatini shakllantirish talablaridan xam kelib chikadi.

Yuqoridagi masalalarni aniq korxonalar misolida o'rganib va tahlil kilib, sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash xamda bu jarayonni boshqarish mexanizmini shakllantirish ishlab chiqarishni boshqaruvchilarning asosiy diqqat markazida bo'lishi kerak.

## **II bob. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili**

### **2.1. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining tashkiliy- iqtisodiy tavsifi**

Xozirgi vaqtda O'zbekistonda asosiy e'tibor iqtisodiyotni real sektorini rivojlantirish, bozorlarni mahalliy xom-ashyo va materiallar asosida ishlab chiqilgan yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, aholining ehtiyojlarini to'laroq qondirish kabi masalalarga qaratilmoqda. Bunday sohalarda albatta to'qimachilik va yengil sanoat ham kiradi. Ushbu sohani rivojlantirish uchun respublikamizda barcha imkoniyatlar yetarli bo'lib, bu imkoniyatlardan unumli foydalanish dolrab masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, to'qimachilik va engil sanoat tarmog'ini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik katta imkoniyatlarga ega sektor hisoblanadi. To'qimachilik sohasining texnologiyalarini takomillashtirish, ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirish, xom-ashyoni tayyor mahsulotgacha yetkazish va ularni dunyo bozorida raqobatdoshligini oshirish O'zbekiston iqtisodiyotini muhim shartlaridan biridir.

Kichik biznes sektori turli mamlakatlar iqtisodiyotida nihoyatda muhim vazifani bajarmoqda. Birinchidan, ushbu sektor bozor sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlaydi, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz, yuksak samaradorlikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, u iste'molchilik sohasida vujudga keladigan «tuynukni» tezda to'ldirishga qodir bo'libgina qolmay, eng zamonaviy mashina - uskunalar va texnologiyadan foydalanib, sarflangan sarmoyaning o'rnini juda tez qo'lay oladi. Uchinchidan, mayda biznes bozor uchun zarur bo'lgan raqobatchilik muhitini, tez 'aydo bo'lib, yo'qolib yetadigan turli xil shakllarni yaratib beradi, u bir zumda o'zgarib turadigan bozor talabiga javob berishga tayyor bo'lish qobiliyatiga ega. To'rtinchidan, aftidan bu eng muhimi bo'lsa kerak, - u shunday tadbirkorlik muhiti va ruhini yaratadiki, eng avvalo ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy manfaatdorligi va tashabbusi asosiga ko'rilgan birorta ham bozor iqtisodiyoti bularsiz kun ko'ra olmaydi.

Yengil sanoatning texnologiyalarini takomillashtirish, ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirish, xom-ashyoni tayyor mahsulotgacha yetkazish va ularni dunyo bozorida raqobatdoshligini oshirish O'zbekiston iqtisodiyotini muhim shartlaridan biridir. Bugungi kunda to'qimachilik sanoatining oldida turgan asosiy masala mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta tolasini qayta ishlash xajmini oshirib, xom ashyo o'rniga tayyor mahsulot bilan nafaqat ichki bozorni to'ldirish, balki eksport xajmini ham oshirishdir.

Bitiruv ishi ob'ekti sifatida tanlangan Farg'ona viloyati, Buvayda tumani, Oqqo'rg'on QFY, Oqqo'rg'on qishlog'idagi «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi Farg'ona viloyati, Buvayda tumani xokimining 2008 yil 23 iyundagi № 314- K sonli qaroriga asosan tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yhatdan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan 2008 – yilning 03 – iyulida 147 - raqam bilan ro'yhatdan o'tkazilgan. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi, toqimachilik va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxona rahbari – uning ta'sischisi Tojimatova Zeboxon Xaydarovna bo'lib, hozirgi kunda korxona Farg'ona viloyati va qo'shni hududlar ichki bozoriga yuqori sifatli to'qimachilik va trikotaj mahsulotlarini yetkazib bermoqda.

Korxona faoliyatining asosiy turlariga to'qimachilik, tikuvchilik, zardo'zlik, popopchilik, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqish va sotish kiradi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining belgilangan qonunlari asosida barcha faoliyat turlarini amalga oshirish huquqiga ega.

Korxona mustaqil balansga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi, mustaqil davlatlar hamdo'stligi va chet davlatlardagi korxonalar, tashkilotlar, firmalar va huquqiy shahslar bilan har xil turdagi kontraktlar, hamkorlik shartnomalari tuzish, savdo-sotiq ishlari olib boorish, o'ziga qarashli bo'lgan mulklarni ijaraga berish va boshqa korxonalar mulkini ijaraga olish huquqiga ega.

Hozirgi kunda biz o'rganayotgan korxona to'qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanmoqda. Trikotaj mahsulotlarini assortiment turlari keng, mahsulotlarining bejirimlilik, kiyishga qulayligi to'qimachilikning elastikligi, mahsulotlarning shakl saqlash

xususiyatlarining yuqoriligi, tashqi ko'rinishi chiroyligi va havo o'tkazuvchanlik xususiyatini yaxshiligi bilan tikuvchilik mahsulotligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan respublika yengil sanoati va to'qimachilik sanoati oldida mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulotlar xajmi va xilma-xilligini oshirishdek muhim vazifa turibdi.

“To'qimachilik sanoati xalq xo'jaligini muhim tarmog'idir”<sup>1</sup>-deb ta'kidlaydi respublikamiz prezidenti I.A. Karimov. Xozirgi kundagi muhim vazifalardan biri bu xalq xo'jaligini tubdan isloh qilish, o'zimizning ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanib iqtisodiy erkinlikka erishishdir.

To'qimachilik sanoati-yengil sanoat tarmoqlaridan biridir. O'zbekistonda bu soha xalq xo'jaligida munosib o'rin egallaydi. Xom ashyo va mehnat resurslarini mavjudligi va sohani rivojlantirishga turtki bo'ldi. Soxaning iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari quyidagilar bilan harakterlanadi: mahsulot ishlab chiqarish hamda mahsulot eksport xajmini oshirish, chet yel sarmoyalarini jalb etishni oshirish bilan, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar miqdorini oshishi bilan.

Trikotaj sanoati hozirgi kunda to'qimachilik mahsulotlariga asosiy e'tibor qaratilgan edi. Gazlama to'qish uchun ishlatiladigan dastgoxlardan trikotaj mahsulotlari 5-10 barobarida ish unimdorliklari yuqori. Gazlamadan tayyorlangan mahsulotlarga nisbatan trikotaj mahsulotlari 30% arzon tayyorlanadi. Trikotaj sanoatida juda ko'p turdagi mahsulotlar tayyorlanadi. Bu mahsulotlari tarkibidagi to'qima turlari va ishlab chiqish mashinalari ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Bundan tashqari mahsulotlar o'zining bejirimligi, sifatliiligi bilan ajralib turadi.

Trikotaj sonoatini jadal suratlar bilan rivojlanib borishi aholini yangi turdagi va fasondagi mahsulotlariga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Ana shu talablarni amalga oshirish tadbirkorlik yo'lini ishga tushirish va ulardan yangi ish o'rinlaridan yaratish imkonini beradi.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek “Ichki bozorimizni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish bugungi kunda biz uchun dolzarb masalalardan

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov, 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish –ustuvor vazifamizdir “Xalq so'zi”, 2015 yil 17 yanvar

biri bo'lmish aholimizni, avvalombor yoshlarimizni ish bilan ta'minlash va shu ma'noda ularni munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda ayni shu sohalarni tez va jadal suratlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri ekanligini xech unutmasligimiz darkor"<sup>1</sup>.

Xozirgi kunda O'zbekiston xududidaga xususiy korxonalarda o'rnatilgan zamonaviy texnologiyadagi trikotaj to'quv mashinalarining texnologik imkoniyatlari katta. Ammo hanuzgacha ularning texnologik imkoniyatlari oxirigacha o'rganilmagan va to'liq o'zlashtirilmagan. Ya'ni bu mashinalarning texnologik imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi.

O'zbekiston korxonalarida o'rnatilgan zamonaviy trikotaj to'quv mashinalarining texnologik imkoniyatlarini o'rganish va kengaytirish yuqorida keltirilgan mashinalarda maxalliy xom ashyolardan yangi tuqima turlarini ishlab chiqarish, keyginchalik esa xaridorgirlik hususiyatlari yuqori trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Trikotaj mahsulolarini assortiment turlari keng, mahsulotlarining bejirimliligi, kiyishga qulayligi to'qimalarining elastikligi, mahsulotlarning shakl saqlash xususiyatlarining yuqoriligi, tashqi ko'rinishi chiroyligi va havo o'tkazuvchanlik xususiyatini yaxshiligi bilan tikuvchilik mahsulotligi bilan ajralib turadi.

Ishlab chiqarish ob'ektimiz bo'lgan «Ahmad Toj Xaydar» ishlab chiqarish korxonasi, o'zining geografik joylashuvi bo'yicha Farg'ona viloyati, Buvayda tumanining Oqqo'rg'on QFY, Oqqo'rg'on qishlog'ida joylashgan. Uning xududi 0.35 gektarni tashkil qilib, asosiy tikuv tsexi binosi, yordamchi binolar, ishchilarning ovqatlanishlari uchun oshxona binosi va boshqa zaruriy inshootlar joylashgan.

Korxona ta'sis etuvchining xususiy mulki asosida tashkil etilgan bo'lib, Nizom jamg'armasi 5000000 (besh million) so'mdan iborat.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov, 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish –ustuvor vazifamizdir “Xalq so'zi”, 2015 yil 17 yanvar

Hozirgi kunda korxonada 27 nafar ishchi va xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning samarali ishlashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, bepul issiq ovqat, ishga va uyga olib borib qo'yish uchun trans'ort tashkil qilingan. Korxonadagi o'rtacha ish haqi 550 – 600 ming so'mni tashkil qiladi. Bu esa xususiy korxona joylashgan xududdagi eng yuqori ish haqilardan biri hisoblanib, kadrlar o'rtasida raqobatni kuchaytiradi. Shuning uchun ham bu yerdagi ishs va xizmatchilarning mehnat unumdorligi ham nisbatan yuqori ekanligini ko'rdik.

«AHMAD TOJ XAYDAR » xususiy korxonasi o'z mahsulotlari uchun kalava iplarni Farg'ona xom ashyo birjasi orqali sotib oladi. Sifatli trikotaj to'qimalarini va mahsulotlarini tayyorlashda iplarning fizik-mexanik xususiyatlari katta rol o'ynaydi. To'qima va mahsulotlarni tayyorlashda ishlatiladigan ip va kalava iplar qanchalik sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

«AHMAD TOJ XAYDAR » ishlab chiqarish korxonasi o'z mahsulotlarini savdo do'konlariga va vositachilar oqali sotadi. Xom ashyo va materiallarni o'zlari olib keladilar.

Boshqaruv strukturasi menejmentning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, menejerlarning ishlari xo'jalik bulinmalari urtasida vakolatlarining taqsimlanishnishi, boshqaruvning maqsadi, funktsiyalari, jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Rahbarlar boshqaruv strukturalarini yaratishda va tanlashda boshqarish usullari va tamoyillariga asoslanishlari kerak.

“Boshqaruv strukturasi deganda tashkilotning bir butun bo'lib faoliyat olib borishi va rivojlanishni ta'minlaydigan tartibli ravishda barqaror o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar tushuniladi”<sup>1</sup>. Qo'yilgan maqsadga erishish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruv faoliyatini taqsimlash va kooperatsiyalash ham boshqaruv strukturasi orqali aniqlanadi. Ushbu pozitsiyadan olganda boshqaruv strukturasi uning tarkibidagi boshqaruv organlari va xodimlar o'rtasida ma'suliyat va vkaolatlar, tartib va faoliyat olib borish shakllari, funktsional majburiyatlarning optimal shaklda taqsimlanishi tizimi sifatida tushuniladi.

---

<sup>1</sup> М.Мескон, М.Альберт, Ф.Хедоури «Основы менеджмента» Москва «Дело» 2003г. 425 бет.

Boshqaruvning strukturasida element va pog'onalarning ortishi munosabatlarining imurakkablashuvi va o'sishiga olib keladi, natijada boshqaruv jarayoni sekinlashadi, zamonaviy sharoitda bu tashkilotda menejment faoliyati sifatining yomonlashishiga olib keladi.


«Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, bu ishni xususiy korxonaning boshqaruv strukturasini tahlil qilishdan boshlashni ma'qul ko'rdik. Ushbu maqsadida strukturaning soddalashtirilgan ko'rinishini o'rganib, tahlil qilishga harakat qilindi (2.1.1–rasm):

Struktura bir qancha xodimlar band bo'lgan biron bir funktsional vazifani bajaruvchi xizmat yoki boshqaruv organlari ham hisoblanishi mumkin. Elementlar yordamida amalga oshiriladi. Gorizontalar aloqalar yagona pog'onali hisoblanib, bir-biri bilan muvofiqlashtirish xarakteriga ega.

Ishlab chiqarish amaliyotiimiz ob'ekti qilib tanlab olingan «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining tashkiliy boshqaruv faoliyati kichik korxonalar kabi tashkil etilgan bo'lib, unda sodd boshqaruv tuzilmasi tatbiq etilgan. O'z navbatida uning boshqaruv strukturasida ham chiziqli tamoyillarga mos holda tuzilgan bo'lib, sodd organik tuzilishga ega.

Xususiy korxonaning yuqori boshqaruv pog'onasi – bu Direktor hisoblanadi, korxonaning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi.

Direktor korxona faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, uning mablag'lari va mulkidan foydalanish uchun maspuldur. Direktor korxona nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, bitimlar tuzadi, shtatlarni tasdiqlaydi, xususiy korxonaning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.



**2.1.1- rasm. «Ahmad Toj Xaydar » xususiy korxonasining boshqaruv strukturasi**  
Manba: «Ahmad Toj Xaydar» HK Nizomi

Uning vakolatiga korxonaning umumiy faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, biznes rejada belgilangan maqsadlar yo'lida korxona strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlash, eks'ort salohiyatini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish, korxona faoliyatiga oid manfaatli shartnomalar tuzish va ularni bajarilishini nazorat qilish, xukumat me'yoriy xujjatlariga mos holda korxona faoliyatini yuritish va boshqalar kiradi.

Direktorga bevosita Bosh texnolog, iqtisodchi va Bosh hisobchi buysunadi. Ular ham o'z faoliyat turi bo'yicha zarur vakolat va javobgarlikka egadirlar.

Bosh buxgalter va uning xodimlari korxona moddiy va pul boyliklarini hisobini olib boradi, ishchi va xizmatchilarga ish haqi hisoblaydi va tarqatadi, mahsulot tannarxiga kiradigan harajatlarni hisobga oladi va mahsulot tannarxining kalg'kulyatsiyasini tuzadi, hisobot va balanslar tuzadi va ularni tahlil qiladi, tsexning barcha turdagi resurslardan to'g'ri foydalanayotganligini nazorat qiladi. Shu bilan birga bo'lim korxonaning istiqbol va joriy biznes rejasini tuzadi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarini olib boradi, tsexni ishlab chiqarish rejasini ishlab chiqishda qatnashadi.

Bosh texnolog korxonadagi barcha dastgoh va mexanizmlarni bir ma'romda ishlashini, ularni texnik ko'rikdan o'tkazib turishni va ishchilarni boshqarishni o'z zimmasiga olgan.

Umumiy holda, biz o'rganayotgan korxona boshqaruv strukturasi qoniqarli darajada tashkil etilgan bo'lib, korxona oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishga zarur imkoniyatlar yaratib beradi.

Xususiyl korxona faoliyatiga iqtisodiy baho berish va ishlab chiqarishni tashkil etish holati hamda xodimlarni yuqori samarali mehnatga motivlashtirish tizimini, faoliyatining yakuniyl natijalarini o'rganish uchun korxonaning ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini o'rganib chiqish zarur.

## **2.2. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish va asosiy texnik –iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili**

Xususiy tadbirkorlik O’zbekiston hukumatining iqtisodiy sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlardan eng ustuvori, davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan masalalardan biri bo’lib, bu xususda Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlab o’tganidek: “kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanishini xar tomonlama qo’llab – quvvatlash, shu asosda aholini bandligini va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan iborat”<sup>1</sup>. Bu yo’nalishda olib borilayotgan ishlar samaradorligini baholash uchun tadqiqot ob’ekti hisoblangan “Ahmad Toj Xaydar” HK ining asosiy texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarini o’rganib chiqish zarur.

Korxonalar ishlab chiqarish – tijorat va moliya faoliyatining tahlil etish asosida Prezidentimiz I. Karimov boshchiligida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar, iqtisodiyotimizda ro’y berayotgan o’zgarishlarning alohida olingan korxonalar misolidagi holatiga ta’sirini o’rganish va shu asosda tarmoq, xudud va mamlakat iqtisodining ravnaqini belgilash mumkin bo’ladi.

Alohida olingan korxonalar ishlab chiqarish – tijorat va moliyaviy faoliyatini tahlil etish asosida:

- ularning faoliyatiga to’g’ri baho berish;
- ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatida jalb qilingan mulk hamda mablag’larning samarali foydalanishining holatini aniqlash;
- korxona faoliyatining natijasi va uning moliyaviy holatiga baho berish;
- korxonaning bozordagi o’rni va uning iqtisodiy reytingini baholash;
- iqtisodiy harakatning maqsadli shartiga erishishda (foydani maksimallashtirish va harajatlarni minimallashtirish) ichki imkoniyatlarni aniqlash va ularni yo’lga qo’yish choralarni belgilash imkoni tug’iladi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov, 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo’l ochib berish –ustuvor vazifamizdir “Xalq so’zi”, 2015 yil 17 yanvar

**«AHMAD TOJ XAYDAR»** ishlab chiqarish **korxonasining** 3 yillik iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganar ekanmiz (2.2.1- jadval), 2013 yil, 2014 yil 2015 yillar davomida shuni ko'rishimiz mumkiniki, yildan yilga ishlab chiqarilgan maxsulot xajmi va sotish xajmi ortib borgan. Mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar xajmini 2015 yilda birmuncha pasaytirishga erishilganligi uchun **«AHMAD TOJ XAYDAR»** ishlab chiqarish korxonasi 2015 moliyaviy yili yakunlaridan foydasi ortdi. SHuni e'tiborga olish joizki, xodimlar soni 2013 yilda 30 ta, 2014 yilda 30 ta, 2015 yilda 32 kishini tashkil etgan.

Buning sababi «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda avvalgi yillarga nisbatan ortganligida. Bu xolat ijobiy bo'lib, korxonada ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilishi asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini ko'paytirish, ularni sifatini oshirishga bugungi kunda e'tibor berilayotganligini ko'rsatadi. Chunki, yangi asr texnika texnologiya asri hisoblanib, shu samaradorlikni oshirishning eng muhim omilidir.

Yengil sanoatning yanada rivojlanishida tayyor maxsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, uning sifatini jaxon andozalari darajasiga yetkazish, xorij texnologiyalari va investitsiyalarini jalb etish xisobiga amalga oshirish mumkin. Bu yo'nalishda «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish uchun yaratilayotgan sharoitlardan foydalanib, qo'shimcha investisiyalar jalb etish hisobiga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, mahsulotlar turlari va assortimentini kengaytirish, ularning sifatini oshirish bilan birga marketing tizimini rivojlantirishi, sotish bozorlarini ko'paytirishi zarurdir.

Tadqiqotlarimizda ta'kidlanganidek Respublika yengil sanoatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlardan biri to'qimachilik tarmog'i yanada yuksaltirish sanaladi. Tarmoq korxonalari paxta tolasini qayta ishlab kalava ip, xom surp, gazlama, trikotaj polotnosi, trikotaj va tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqaradi.

**2.2.1-jadval**

**«Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining iqtisodiy ko'rsatkichlari**

| Ko'rsatkichlar                     | O'lchov birligi | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | O'zgarish     |               |
|------------------------------------|-----------------|----------|----------|----------|---------------|---------------|
|                                    |                 |          |          |          | 2015/<br>2014 | 2015/<br>2013 |
| Maxsulot ishlab chiqarish xajmi    | ming. so'm      | 121800   | 220715   | 319877,8 | 145           | 262,6         |
| Asosiy turdagi mahsulot i/ch       |                 |          |          |          |               |               |
| Trikotaj mahsulotlari              | tonna           | 30       | 51       | 60       | 117,6         | 2 barobar     |
| Tikuvchilik mahsulotlari           | ming dona       | 38,5     | 74,9     | 86,8     | 115,9         | 225,5         |
| Asosiy vositalar                   | ming so'm       | 73846,2  | 79941,3  | 80593,0  | 100,8         | 109,1         |
| Ishlovchilar soni                  | kishi           | 30       | 30       | 32       | 106,7         | 106,7         |
| SHundan ishchilar                  | kishi           | 18       | 18       | 20       | 111           | 111           |
| O'rtacha ish xaqi                  | ming so'm       | 573,7    | 618,1    | 670,3    | 108,4         | 116,8         |
| Sotilgan maxsulotlar               | ming so'm       | 105000   | 200650   | 296183,2 | 147,6         | 282           |
| Maxsulot ishlab chiqarish tannarxi | ming so'm       | 80245,9  | 175881   | 157605,9 | 89,6          | 196,4         |
| Sof foyda                          | ming so'm       | 20442    | 21985,4  | 41847,8  | 190,3         | 204,7         |
| Rentabellik                        | %               | 25,5     | 12,5     | 26,6     | +14,1         | +1,1          |

Manba: «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining 2013-2015 yillardagi hisobot ma'lumotlari

«Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining iqtisodiy –moliyaviy taxlili – bu ma’lum davrga qadar tayorlangan va qabul qilingan, odatda erishish lozim bo’lgan sarf xarajatlarning xamda ushbu maqsadga erishish uchun jalb etish zarur bo’lgan kapitalni rejalashtirilgan miqdorini pul bilan ifodalangan miqdoriy rejasidir. 2.2.2-jadvalda «AHMAD TOJ XAYDAR» xususiy korxonasining iqtisodiy moliyaviy ko’rsatkichlari taxlil qilindi. Bunga 2015 yil ko’rsatkichlari avvalgi yillar ko’rsatkichlari bilan taqqoslandi, xamda unimdorlik foizi chiqarildi. Aytish joizki, foizlar 2015 yil yakuniga bajarilgan ishlarni yuqori bo’lgan ko’rsatkichlarini ko’rsatdi. Moliyaviy natijalardan ko’rinib turganidek, korxonada 2015 yilda ilgari 2013 va 2014 yillarga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortishi natijasida sotish hajmi ham ortgan. Xususan, 2015 yilda mahsulot sotishdan tushgan tushum 296183,2 ming so’mni tashkil etib, 2014 va 2013 yillarga nisbatan mos ravishda 47,6 % va 182% ga ko’paygan. Xuddi shunday ravishda sotilgan mahsulot tannarhini ko’radigan bo’lsak, 2015 yilda bu ko’rsatkich 157605,9 ming so’m bo’lib, 2014 yildagiga nisbatan 89,6%ni, 2013 yildagiga nisbatan esa 196,4 %ni tashkil etgan. Agar 2015 yilda mahsulot sotishdan tushgan tushum 2013 yildagiga nisbatan 282 %ni tashkil etgani xolda, xuddi shu davrdagi sotilgan mahsulot tannarhi 196,4 %ni tashkil etganini hisobga olsak, tannarhni o’sishi sur’atlari pastroq bo’lganini ko’rishimiz mumkin. Buning sababi, korxonada xarajatlarni, xususan, material xarajatlari va davr xarajatlarini kamaytirish bo’yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilganidir. Bunda arzonroq xom ashyodan foydalanganlik, energiya xarajatlarini kamaytirish bilan birga, ma’muriy xarajatlarni kamaytirishga erishilishi ijobiy natija bergan. Demak, korxona rahbariyati o’z iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik xolatini ta’minlashlari uchun davr talablaridan kelib chiqqan xolda, xarajatlarni kamaytirish bo’yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishlari zarur. Xarajatlar ortib ketishi, albatta, faoliyatning yakuniy natijasi-foyda ko’rsatkichiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Jadvaldan ko’rinib turganidek, biz o’rganayotgan 2015 yilda korxonaning sof foydasi miqdori 2015 yilda 41847,8 ming so’mni tashkil etgan. Agar korxonaning 2014 yilni 21985,4 ming so’m sof foyda bilan yakunlaganini qisobga olsak, 2015 yilda moliyaviy natijalarni yaxshilashga xarakat qilingan. Bunda asosiy ishlab

chiqarish faoliyatidan tashqari faoliyat turlarini ko'paytirish, xususan, savdo-vositachilik xizmatlarini kengaytirish hisobiga foyda miqdorini oshirishga erishilgan. Demak, bu yo'nalishda ham korxonada foydalanishi zarur bo'lgan imkoniyatlari mavjud.

Va nihoyat, korxona faoliyatining samaradorligiga baho beruvchi ko'rsatkich - rentabellik ko'rsatkichini ko'radigan bo'lsak, 2015 yilda bu ko'rsatkich 26,6 % darajada bo'lgan, yoki 2014 yilga nisbatan 14,1 bandga, 2013 yildagiga nisbatan 1,1 bandga ortgan. Rentabellik ko'rsatkichi 2015 yilda nisbatan yuqori bo'lganligi bu yilda faoliyatni tashkil etish samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaytirilganligini ko'rsatadi. Umumiy xolda, korxonada ishlab chiqarish xajmining ortishi korxonaning iqtisodiy barqarorligini oshiruvchi ko'rsatkich bo'lib, korxona rahbariyati ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash asosida mahsulot va xizmatlar turlarini ko'paytirib, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha tizimli ish olib borishi zarur.

Rejalashtirish korxonalarda kelgusida cheklangan davrga, odatda uzog'i bilan bir yilga tuzilib, ancha qisqa davrda: uch oy, bir oy yoki to'rt xaftalik davrlarga bo'linadi. Qisqa boshqaruv nazorat qilish davrida qisqa muddatli davrga reja tuziladi. Nazorat davri oxirida joriy faoliyatni taxlil qilish va baxolash uchun xaqiqiy ma'lumotlar byujetdagi ma'lumotlarga solishtiriladi.

Maxsulot ishlab chiqarish va sotish taxlili 2.2.2- jadvalda ko'rsatilgan. Bunda sotish uchun rejalashtirilgan xajmi natura ifodasini aniqlagandan so'ng sotuvchi va zaxiralarning zarur darajasini ta'minlashi zarur bo'lgan mahsulot berilishi aniqlangan. Bu jadvalda avvalo tayyor maxsulotlar zaxirasi darajasi oldingidek qoldimi yoki u ko'payishi, kamayishi ko'rsatilgan. Bunda sotuv jarayoni, boshlang'ich va eng nozik paytidir.

Ko'p xollarda mahsulot ishlab chiqarish xajmi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari bilan belgilanadi. Sotuv xajmini «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining butun faoliyati darajasini va xarakterini belgilashi bilan birga uning istiqboliga ta'sir qiladi.

Xodimlar sonini birmuncha kamligi yangi texnologiyalarni joriy etishga to'sqinlik qilmoqda. «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida ishlab chiqarish

bo'yicha ishlab chiqqan rejasiga asosan, korxonaga innovatsion loyixhalar jalb qilish orqali 2016-2018 yillarda uning ishlab chiqarish quvvatlarini 3 baravarga oshirish mo'ljallangan.

2013 yil oxirida 5,19 mln so'mlik tovar-maxsulotlari qoldiq qolgan. Bu maxsulot 2014 yil boshiga o'tadi. 2014 yil realizatsiya xajmi ko'p bo'lganligi uchun yil oxirida qoldiq qolmadi. 2015 yil oxiridagi qoldiq esa 4,16 so'mni tashkil etdi. Korxonada sotilmagan qoldiq qolishi bu yerda marketing faoliyati yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatadi va bu yo'nalishda mahsulot turlari va sifatini oshirish bo'yicha ko'p ishlar amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

«Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining rentabellik ko'rsatkichlari tahlili (2.2.2-jadval)da yillik hisobot materiallardan foydalanib, sotilgan mahsulot tannarxi, mehnat sarfi va umumishlab chiqarish sarf –xarajatlarining yig'ib xar birining rentabelligi tahlil qilingan.

## 2.2.2-jadval

### «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

| №  | Ko'rsatkichlar                                  | O'lch. birligi | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | 2015/<br>2014,<br>% | 2015/<br>2013,<br>% |
|----|-------------------------------------------------|----------------|----------|----------|----------|---------------------|---------------------|
| 1. | Sotishdan olingan sof tushum                    | ming so'm      | 105000   | 200650   | 296183,2 | 147,6               | 282                 |
| 2. | Sotilgan maxsulotning ishlab chiqarish tannarxi | ming so'm      | 80245,9  | 175881   | 157605,9 | 89,6                | 196                 |
| 4. | Asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati    | ming so'm      | 73846,2  | 79941,3  | 80593,0  | 100,8               | 109,1               |
| 5. | Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i | ming so'm      | 55193,0  | 66038,9  | 64986,4  | 98,4                | 117,7               |
| 6. | Sof foyda                                       | ming so'm      | 20442    | 21985,4  | 41847,8  | 190,3               | 204,7               |
| 7. | Asosiy vositalar rentabelligi                   | %              | 27,7     | 27,5     | 52       | +24,5               | +24,3               |
| 8. | Aylanma mablag'lar rentabelligi                 | %              | 37       | 33,3     | 64       | +30,7               | +27                 |
| 9. | Sotilgan maxsulot rentabelligi                  | %              | 19,5     | 11       | 14,1     | +3,1                | -5,4                |

\* Manba: «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining moliyaviy hisobotlari

«Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida mehnat unumdorligi rejasining bajarilishi rejalashtirilgan ishlab chiqarish xajmini bajarish uchun talab qilinadigan zarur ish vaqt soatlari, ishchi xodimlar soni, xaqiqatda ishlovchilar soniga bo'lib, uning rejalashtirilgan, bajarilgan mehnat unumdorligini aniqlaydi. Buning uchun bizga «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi ishchilarining soni, shu jumladan, asosiy ishlab chiqarish xodimlari, yordamchi ishlab chiqarish xodimlari soni, texnik ma'muriy boshqaruv xodimlari sonini aniqlashtirib olamiz. SHu yo'l bilan mehnat unumdorligini aniqlaymiz. SHu bilan birga xar bir xodimlarning umumiy sonidan, bir xodimning unumdorligini aniqlashimiz mumkin.

### 2.2.3 -jadval

#### «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi mehnat ko'rsatkichlari tahlili

| №    | Ko'rsatkichlar                                 | O'lchov birligi | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | 2015/<br>2014<br>% | 2015/<br>2013<br>% |
|------|------------------------------------------------|-----------------|----------|----------|----------|--------------------|--------------------|
| 1.   | Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi              | Ming so'm       | 121800   | 220715   | 319877,8 | 145                | 262,6              |
| 2.   | Xodimlar soni                                  | Kishi           | 30       | 30       | 32       | 106,7              | 106,7              |
| 2.1. | SHundan: ishchilar                             | Kishi           | 18       | 18       | 20       | 111                | 111                |
| 3    | O'rtacha oylik ish haqi                        | Ming som        | 573,7    | 618,1    | 670,3    | 108,4              | 116,8              |
| 3.   | 1 xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi | Ming som        | 4060     | 7357,2   | 9996,2   | 135,9              | 246,2              |
| 4.   | 1 Ishchining mehnat unumdorligi                | Ming som        | 6766,7   | 12262    | 15993,9  | 130,4              | 236,4              |
| 5    | Kadrlar qo'nimsizligi                          | %               | 6        | 6        | 5        | -1                 | -1                 |

Manba: «Ahmad Toj Xaydar» xususiy korxonasining 2013-2015 yillardagi hisobotlari

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan foydalangan xolda korxona o'z ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda marketing strategiyasini tanlab, faoliyatni yo'lga qo'yishi zarurdir.

Umumiy holda aytish mumkinki, “Ahmad Toj Xaydar” hususiy korxonasi faoliyati iqtisodiy barqaror darajada bo’lib, moliyaviy iqtisodiy ko’rsatkichlari o’zgarib borish tendensiyalariga ega. Bu narsa korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, marketing tizimini rivojlantirish orqali yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishni yo’lga qo’yish, bu yo’nalishda innovatsiyalarni joriy qilish, boshqarishni ilg’or usullarini qo’llash zarurligini ko’rsatadi.

### **2.3. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimi tahlili**

Mahsulot sifati korxona faoliyatiga baho beruvchi ko'rsatkichlardan biridir. Shu sababli, mahsulot sifatini ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish – xar bir korxona oldida turgan asosiy vazifadir.

Bugungi kunda Respublikamiz korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy qilish, import qrnini bosa oladigan va eksportbop yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, yangi – yangi sarmoyalarni yurtimizga jalb qilishda xamda tashqi bozorlarga chiqish masadida Respublikamiz hukumati tomonidan korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy qilishga va sertifikatlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Shu munosabat bilan, 2004 yil 22 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 349–sonli «Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida» gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror respublikaning eksport salohiyatini o'sishiga, xalqaro standartlar talablariga muvofiq bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga, ularning tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

«Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi yo'q bo'lib, bu erda sifatni ta'minlash bo'yicha javobgarlik asosan tsex boshlig'iga yuklatilgan. Tsex boshlig'i bevosita direktorga va direktorning 1-o'rinbosariga bo'ysunadi. Tsex boshlig'i mahsulot va jarayonlarning sifatini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar va me'yorlar bajarilishini ta'minlaydi.

Korxonada sifatni ta'minlash yo'lidagi birinchi qadam bo'lib, maqsadlarni aniqlash hisoblanadi. Bu odatda standart va texnik shartlarni ishlab chiqishda ifodalanadi.

«Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida sifatni ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan davlat standartlari, xalqaro sifat standartlari, tarmoqning o'z standartlari hamda korxona standartlari va texnik

shartlariga rioya qilingan xolda ishlar tashkil etilgan. Xususan, korxona standartlari va texnik shartlari xar bir ishlovchiga etkazilib, ularning o'z vazifalarini bajarish yo'riqnomalariga kiritilgan.

Biz korxonada mahsulot sifatini boshqarishda amal qilayotgan korxona standartiga muvofiq xom ashyolarni qabul qilishda, ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarda, mahsulotlarni saqlashda hamda tashishda ularning sifatini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalarni o'rganib chiqdik.

Birinchi navbatda, korxonaga xom ashyolar qabul qilinayotganda ularning partiyasi ochib nazorat qilinadi. Bu ishni ta'minot va sotish bo'yicha director o'rinbosari amalga oshiradi. Bunda mahsulotlar tanlanmasida brak (sifatsiz) mahsulotlar aniqlanganda, ushbu nuqsonlar yetkazib beruvchi va tashuvchilar aybi bilan bo'lsa, «Qaytarish bayonnomasi» tuzilib, dalolatnoma qayd etiladi.

Biz o'rgangan korxonada mahsulot sifatini boshqarishning yalpi tizimini joriy qilish zarur bo'lib, bunda korxonaning xar bir bo'limi, xodimi, ishchisi nafaqat mahsulot sifatiga, balki jarayonlar sifati, mehnat sifatiga, boshqaruv sifatiga javobgar bo'lishi lozim.

Korxonada mahsulot sifatini ta'minlash uchun rag'batlantirish tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan bo'lib, ishida nuqson va xatolarsiz ishlagan xodimlar mukofotlanmaydilar. Bu narsa korxonada mahsulot sifatini oshirib borishni motivatsiyalashni susaytiradi. Shu bilan birga, rahbarlar ham sifatni oshirishni ta'minlash uchun motivlashtirilishi zarur.

Biz o'rganib chiqqan korxonada mahsulot sifatini ta'minlashda yo'qotish va nuqsonlar ham uchrab turib, ular natijasidagi moliyaviy yo'qotishlar korxonaning moliyaviy natijasiga salbiy ta'sir etadi (2.3.1 -jadval). Bu yo'qotishlarning asosiy sababi-ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya etmaslik yoki biron-bir xom-ashyo va materialning talabga javob bermasligi tufayli, yoxud boshqa sabablarga ko'ra, mahsulotning tashqi ko'rinishi yoki tikilishi jarayonidagi nuqsonlar, qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishlar va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan sifat nazorati mexanizmi yaxshi darajada yo'lga qo'yilganda, yaroqsiz xom-ashyo va materiallar o'z vaqtida aniqlanib, qaytarib yuboriladi. Biz

o'rganayotgan korxonada ham sifat nazorati orqali nuqson va yo'qotishlar hisobga olib boriladi. (2.3.1- jadval). Jadvaldan ko'rinib turganidek, 2013-2015 yillarda aniqlangan nuqsonlar alohida hisobga olinib, umumlashtiriladi va tahlil qilinadi.

Mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash maqsadida korxonada standartlar talablariga rioya qilinadi. Xususan, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlarining sanitariya-gigiyenik talablarga mos materiallardan iaslab chiqarish, ularning gigroskopik, havo o'tkazuvchi va tez yonmaydigan materiallardan tayyorlanishi me'yor darajada bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu narsalar tikuvchilik va trikotaj mahsulotlarini sanitariya va gigiena me'yorlariga javob berishi bilan birga estetik va kovstruktion sifatini ta'minlaydi va tayyor mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi.

YAroqsiz mahsulotlarni almashtirish yoki yo'q qilish, nuqsonlarni tuzatish bilan bog'liq harajatlar korxona mahsulot ishlab chiqarish harajatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinib to'rganidek, yo'qotishlarning tannarxdagi ulushi 0,17 – 0,2 % ni tashkil etmoqda. Agar bu yo'qotishlarni kamaytirishga erishilsa, korxonaning moliyaviy natijalari yaxshilash imkoni tug'iladi. Shu sababli, korxona rahbariyati yo'qotishlarni kamaytirish, sifatni ta'minlash borasida doimiy ravishda ish olib borsa, korxona faoliyatining yakuniy natijasi – foyda miqdori ortgan bo'lar edi. Bundan tashqari, sifat talab darajasida ta'minlansa, xaridorlar soni ortib, korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi ortadi.

Mahsulot sifatini oshirish bo'yicha topshiriq va tadbirlar barcha korxonalar va birlashmalar xo'jalik faoliyati yillik rejalarining tarkibiy qismiga kiradi. Birlashma va korxonalar tomonidan oliy sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishning usish sur'atlari yoki belgilangan boshqa ko'rsatkichlar yillar bo'yicha taqsimlanib, biznes-rejalari va strategik rejalarida tasdiqlanadi. Mahsulot sifatini rejalashtirishda iste'molchilar reklamatsiyalari (e'tirozlari) asosida sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarish tufayli yuz beruvchi yuqotishlar tanqidiy munosabat asosida tahlil kilinadi. Yo'l qo'yilgan xatolarning sabablari va aybdorlar aniqlanib, yuqoridagi nuqsonlar yo'qotiladi.

2.3.1-jadval

## «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida mahsulot sifati yo'qotishlari ko'rsatkichlari

| № | Ko'rsatkichlar                      | O'lchov birligi | Yillar   |          |          | O'zgarish      |                 |
|---|-------------------------------------|-----------------|----------|----------|----------|----------------|-----------------|
|   |                                     |                 | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | 2015 /2014 (%) | 2015 / 2013 (%) |
| 1 | Mahsulot ishlab chiqarish xajmi:    | ming. so'm      | 121800   | 220715   | 319877,8 | 145            | 262,6           |
| 2 | Natura xolatida                     | tonna           | 30       | 51       | 60       | 117,6          | 2 barobar       |
| 3 | Yo'qotishlar                        | ming so'm       | 160,5    | 316,6    | 268      | 84,6           | 167             |
| 4 | Yo'qotishlarning tannarxdagi ulushi | %               | 0,2      | 0,18     | 0,17     | -0,01          | -0,03           |

\* Jadvaldagi ma'lumotlar «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonas ning 2013 – 2015 y.y. hisobot hujjatlaridan olindi

O'z obroyini qadrlaydigan korxona jamoasi e'tirozlarni kutib o'tutirmay, mahsulot iste'molchilari bilan aloqa o'rnatib, ularning sifatga bergan baholarini, maslahat va istaklarini inobatga olgan xolda rejalarni ishlab chiqadilar. Mahsulot sifatini oshirish uchun korxona barcha tadbirlarni e'tiborga olgan reja tuzadi. Chunki mahsulot sifati korxona faoliyatining barcha texnikaviy – iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan mustahkam bog'liqdir.

Sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun tegishli texnik tadbirlar zarurdir, ammo xar qanday eng mukammal texnika va texnologiya xam vaqt o'tishi bilan dastlabki aniqlik qobiliyatini (xususiyatini) yo'qotadi. Shuning uchun ham korxonalarda uskunalarining aniqlik qobiliyatini ko'rsatuvchi laboratoriya tekshiruvlari va boshqa nazorat tizimini o'rnatish, uni tartibli ravishda davlat standart nazoratidan o'tkazib turish, eskirgan mashina va texnologiya yo'llarini yangisi bilan almashtirib turish talab etiladi. Ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida tayyor mahsulotning sifati ko'p jihatdan ularning saqlanishi bo'yicha samarali tadbirlarga bog'liq. Bunda xom-ashyo, materiallar va ularni o'rash, joylash, tashish katta ahamiyatga ega. Qator korxonalarda texnologik intizomni buzilishi tufayli sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishga yo'l qo'yiladi. Ularning sababi standartdan, texnik shartlardan yoki boshqa me'yorlardan cheklanish bilan mahsulot ishlab chiqarish va boshqa sabablar – texnologik intizomni qo'pol buzishdir. Sifatsiz mahsulot tayyorlagani yoki moddiy boylikni ehtiyotsizlik bilan nobud qilganligi uchun korxona ma'muriyati uch oy muddatgacha ishchining malaka razryadini pasaytirish xuquqiga ega.

Umumiy xolda aytish mumkinki, «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida sifatni boshqarish tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, uni kompleks yo'lga qo'yish bilan birga, ta'minotchilar bilan sifatni ta'minlashda hamkorlikni kuchaytirish hamda iste'molchilar bilan aloqani mustahkamlash talab etiladi.

### **III bob. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish yo'llari**


#### **3.1. Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarini kuchaytirish yo'llari**

Raqobat kurashi kuchayib borishi sharoitida korxonalar mahsulot sifatini sistemali boshqarishni joriy qilishi orqali muvaffaqiyatli rivojlanishlari mumkin.

«Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi da mahsulot sifatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha hozirda olib borilayotgan ishlar davom ettirilish va doimiy ravishda rivojlantirilib, harakatlar kuchaytirilishi lozim. Umumlashgan xolda korxonada sifatni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha yaxlit strategiya ishlab chiqilib, uni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy dastaklari shakllantirilishi zarur. (3.1.1-rasm)

Sifatni ta'minlash borasidagi siyosat korxonaning faoliyat prinsipi yoki uzoq muddatli maqsadi kilib belgilanishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- korxonaning iqtisodiy xolatini yaxshilash;
- sotish bozorlarini kengaytirish yoki yangilariga kirib borish;
- mahsulot ishlab chiqarishning standart va texnik shartlarini doimiy ravishda qayta ko'rib borish;
- mahsulotning sifat darajasini etakchi korxonalar darajasidan ortik bo'lishiga erishish;



3.1.1- rasm. Korxonada Mahsulot sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish yo'llari

- bozor talablarini kondirishga javob berishga yunaltirilganlik;
- ma'lum tarmoqlar iste'molini kondirishga yunaltirilganlik;
- funksional imkoniyatlari yangi prinsiplar asosida amalga oshuvchi mahsulotlarni o'zlashtirishni yo'lga qo'yish;
- mahsulot sifatining muhim ko'rsatkichlarini yaxshilash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nuqsonlilik darajasini pasaytirish;
- aniq xaridorlar buyurtmalari asosida ishlash;
- xizmat ko'rsatishni rivojlantirish.

YUqorida keltirilgan sifatni boshqarish strategiyasini «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi faoliyatiga asos sifatida qo'llash korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini yuqori sifatini ta'minlashda xom ashyo va materiallarni etkazib beruvchi korxonalar, iste'molchilar, savdo vositachi tashkilotlari bilan doimiy xamkorlikni kuchaytirishga olib keladi.

Shuning bilan birga, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari bilan mahsulot ishlab chiqarish jarayonining yangi, ilg'or texnologiyalarini joriy etish, mavjud ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va mahsulot sifatini oshirishga doir tadqiqot ishlarini amalga oshirish bo'yicha samarali xamkorlikni yo'lga qqqish mahsulot sifatini boshqarish mexanizmining muhim bqg'ini buladi.

Korxonada xozirgi kunda amal kilayotgan «sifat tqgaraklari» xarakatini kengaytirish, ularga korxonaning barcha bo'limlari xodimlarini jalb qilishga erishish lozim. Xar bir rahbar, ishchi va xodimlarning lavozim instruksiyasiga mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar kiritilishi bu maqsadga erishishga yordam beradi. Shu bilan birga yangi ishga kabul kilingan ishchi va xodimlar uchun sifatni ta'minlash bo'yicha maxsus dastur bo'yicha ukishlar tashkil etish, korxonada sifatni ta'minlash, kasb maxoratini oshirish, iqtisodiy va texnik bilimlarni oshirishga qaratilgan dasturlar bo'yicha doimiy ravishda qqishlar tashkil etish zarurdir.

Sifatni ta'minlash borasidagi muhim bosqichlardan biri, bu – mahsulotni sertifikatlashtirishdir. Sertifikatlashtirish – mahsulotni standartlar talablariga mosligini tekshirish imkonini beradi va mahsulot ob'ektiv tarzda sinalgan xamda tekshirilganligini ifodalaydi.

Sertifikatlashtirish tekshirilayotgan mahsulotni sinovdan qtkazish, ishlab chiqarish sharoitlarini baholash, jarayonlarni amalga oshishini nazorat qilish va mahsulot sifatini xolis organ tomonidan nazorat qilishga asoslangan. Ushbu barcha operatsiyalarning birligi iste'molchi uchun muhim bo'lgan mahsulot jihatlarini normativ-texnik xujjatlarda (NTX) belgilash va nazorat qilish imkonini beradi.

Sertifikatlashtirish - fakatgina belgilangan talablarga kat'iy rioya etilishining ishonchli kafolati bo'lib kolmay, mahsulot sifatini oshirishning samarali vositasi va rag'batlantiruvchi omilidir.

Sertifikatlashtirish ishlarida muhim mezonlarni aniqlash, sertifikatlash tizimini tanlash, texnologik jarayon barkarorligini ta'minlash xamda mahsulot sifatini boshqarish tizimini qqlash katta ahamiyatga ega.

Korxonada sifatni ta'minlashda eng asosiysi – sifatni boshqarish xizmati korxonaning barcha struktura birliklarida sifatga yo'naltirilgan faoliyat yuritishni rag'batlantiruvchi tashkilot madaniyatini shakllantirishga, ishchi-xodimlarda zarur xulk-atvor me'yorlarini yuzaga keltirishda muhim ahamiyatga ega.

Umumiy xolda aytish mumkinki, ushbu yo'nalishlarda harakat qilish korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimini yanada yuqoriroq bosqichga olib chiqadi.

### **3.2. Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi**

Xar bir iqtisodiy tizim o'z faoliyati barqarorligini ta'minlash yo'lida mavjud moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot va boshqa turdagi resurslardan oqilona foydalanib, tizim natijaviyligi va samaradorligini oshirishga intiladi.

Iqtisodiyotni samarali boshqarishning iqtisodiy mazmuni asosan shundan iboratki, u vaqtni tejashga, olinadigan foydani ko'paytirishga, mahsulot xajmini oshirishga va sifatini ko'tarishga ko'maklashadi.

Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning kompleks mexanizmi joriy qilinishi va takomillashuvi ma'lum moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgani sababli qo'yilgan maqsadning maqbul turlarini tanlashda aniq bir xolatda ularni iqtisodiy asoslamoq darkor.

Iqtisodiy samarani aniqlash usullari albatta birinchidan, kapital mablag'larni kiritishdagi iqtisodiy samarani aniqlashda yangi texnika ishlatilishining umumiy qoidalarini, xamda xarajatlarning iqtisodiy samarasini hisobga olish kerak. Boshqa tomondan esa, ular asosida boshqarishni o'ziga xosligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bo'lishi lozim.

Korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirilishining iqtisodiy samarasini ilmiy – uslubiy hisoblari ma'lum uslubiy qoidalarga asoslanishi kerak, shu jumladan: bir dona mahsulot uchun eng kam xarajat evaziga eng katta daromad olishga intilish va uning vazifasiga binoan ma'lum talablarni qondirishi, qabul qilinadigan qarorlarning maqbul turlarini tanlashda o'xshash yondoshuvlar bo'lishi, xarajatlarni va olinadigan samarani turli vaqtlarda bo'lish omilini hisobga olish.

Shunday qilib, korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimining yanada takomillashuvining iqtisodiy samarasi ishlab chiqarish samarasining organiq bir butun qismi bo'lib, unda ushbu tizimlarning xukm surishining iqtisodiy natijalari aks ettiriladi. Sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish asosida boshqaruvning iqtisodiy ma'nosi, rivojlanishi va takomillashuvi asosan shundan iboratki, u olinadigan foydaning ko'payishiga ko'maklashadi va shu bilan birga ishlab

chiqariladigan mahsulot xajmi ko'payadi, xarajatlar kamayadi. Boshqaruv samaradorligi qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish xarajatlarining solishtirma og'irligi shuncha kam bo'ladi va ushbu soxada mehnat sarfining iqtisodiy samarasi ahamiyatliroq bo'ladi.

Umumiy ko'rinishda tizimning iqtisodiy samaradorligi quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$S \geq E / X ;$$

Bu erda  $E$  – tizim faoliyatining iqtisodiy samarasi ( mahsulot xajmi, foyda)

$X$  – bu samaraga erishish uchun sarflangan xarajatlar

Eng yuqori iqtisodiy samaraga erishish uchun ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan va asbob –uskunalardan unumli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan tejimli foydalanish evaziga xarajatlarni kamaytirish zarur. Albatta bularning barchasi boshqaruv tizimini to'g'ri tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, okilona qarorlar qabul qilish bilan birgalikda sifatni boshqarishning kompleks tizimini joriy qilish orqali erishilgandagina kutilgan natijani berishi mumkin.

Foyda samaradorlikni baholashning ko'rsatkichi sifatida xalk xujaligi tarmoqlari, korxona va tashkilotlar bo'yicha samaradorlikni hisoblashda ma'lum uslubiy qo'llashni ta'minlaydi. Shu munosabat bilan boshqa teng sharoitlarda samaradorlikning ko'rsatkichi sifatida foydani qo'yish kerak.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar samaradorligi ijtimoiy – iqtisodiy samarlarda ko'rinadi.

Ijtimoiy samara mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat malakasi va madaniyatining oshishi, xodimlarning ish faolligi usishi, ziddiy xolatlarining qisqarishi va boshqa miqdoriy baholashga mos kelmaydigan omillarda namoyon

buladi. Shuning uchun ijtimoiy samara boshqaruv tizimi yoki uning aloxida tashkiliy birligida yuz bergan sifat bo'yicha siljishlar (kadrlarning tqliqligi, ular qo'nimsizlgining qisqarishi va boshqalar) bilan tavsiflanadi.

Korxonaning mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlarni tadbiq qilishdan olingan iqtisodiy samara to'g'ri va bilvosita samaralarda ko'rinadi.

To'g'ri samara tadbirlarni tadbiq etishdagi mehnat, moddiy va moliyaviy xarajatlarni tqg'ridan – tqg'ri tejashda namoyon buladi.

Ko'pchilik iqtisodchilar, boshqaruv apparati mehnatining natijalari asosan ishlab chiqarish faoliyatining so'nggi natijalarida namoyon bo'ladi, deb to'g'ri aytadilar. Shuningdek, sifatni oshirishni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlarni tadbiq qilishdan olingan iqtisodiy samara xam asosan to'g'ri samarada emas, balki bilvosita samarada, ya'ni korxona faoliyatining yakuniy natijalarida ko'rinadi.

Korxona faoliyati natijaviyligining asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

**Ta'sirchanlik** - tashkilot maqsadlariga erishish darajasi.

**Tejamlilik**- zaruriy va sarflanayotgan resurslar (xarajatlar)ni nisbati.

**Foydalilik**- jami xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi nisbat.

**Mehnat faoliyati sifati** - xodimlarning mehnat sharoitlari.

**Innovauiya faolligi** - tashkilot faoliyatining turli soxalariga yangiliklarni joriy qilish va boshqalar.

Biz qrganib chiqqan «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish natijasida korxonada mahsulot ishlab chiqarish xajmi va sifati ortadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, brak va yqqotishlar qisqaradi. Bularning barchasi korxonada mahsulot ishlab chiqarish xajmi, uning moliyaviy – iqtisodiy ko'rsatkichlari ortishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda miqdorining ortishiga va korxonaning kelgusida texnik qayta jixozlanishi va modernizauiyalanishi uchun zarur moliyaviy manbalarni shakllanishiga asos buladi.

Agarda biz taklif etayotgan tadbirlar natijasida «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi da mahsulot ishlab chiqarishda nuqson va yo'qotishlar xajmi o'rtacha 30 % ga kamaysa, bu qo'shimcha 80,4 ming so'm iqtisodiy samaraga (tannarxning kamayishiga) olib kelishi mumkin.

Demak, korxonada mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish natijasida katta iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishish mumkin.

## **Xulosa va takliflar.**

Zamonaviy sharoitlarda korxona va firmalar raqobat kurashida ustunlikka ega bo'lib, bozorda qz mustahkam mavqeini egallashga harakat qilishmokka. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun raqobatni olib borishni belgilab beruvchi xatti-harakatlar dasturi – strategiyani ishlab chiqish talab etiladi. Bu strategiyada korxonalar operauion faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish masalalari muhim qrin tutadi.

Xozirgi kunda mamlakatimizda jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarini bartaraf etishga va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda korxonalar faoliyatini rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan. Ular qatorida iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, ularda ishlab chiqarishni kengaytirish va uning samaradorligini oshirish vazifalari belgilab berilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga milliy iqtisodiyotimizning strategik ahamiyatga ega tarmoqlarini rivojlantirish vazifasi kiritilgan va to'qqimachilik shunday tarmoqlardan biri ekanligini hisobga olgan xolda, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Albatta, bu soha korxonalari samaradorligi ko'p jihatdan xom-ashyo bazasining mustahkamligi, ishonchli moddiy-texnika ta'minoti, mahsulot va xizmatlar sifatini tashkiliy ta'minlashga bog'liq.

Bitiruv ishi doirasida bu masalalarning nazariy jihatlarini o'rganib chiqish va «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi faoliyatini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

- Mahsulot sifati - bu uning iste'molchilarning aniq extiyojlarini qondira olish xususiyatlari yig'indisi bo'lib, korxona faoliyatining natijaviyligi va samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichdir. Mahsulot sifatiga juda kqplab omillar ta'sir ko'rsatadi va sifatni ta'minlash uchun xom-ashyo va resurslar sifatini ta'minlashdan tortib, texnika va texnologiya, xodimlar malakasi, standartlar,

nazorat, tashish va saqlash jarayonlari kabi ko'plab jarayonlarni o'z ichiga olgan sifatni boshqarishning kompleks tizimini shakllantirish zarur.

«Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasi – Farg'ona viloyati, Buvayda tumanida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalardan biri bo'lib, viloyat va qqshni hududlar aholisini sifatli trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Korxonada 2015 yilda 319877,8 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, sotilgan. Ushbu korxonada mahsulot sifatini boshqarishning alohida tizimi shakllantirilmagan bo'lib, sifat nazorati asosan ta'minot va sotish bo'yicha director o'rinbosari va tikuv tsexi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Bunda texnologik jarayon sifati birmuncha nazoratdan chetda qolib, ayrim xollarda ishda nuqson va yo'qotishlar uchrab turadi.

Korxonada mahsulot sifatini ta'minlashda xom ashyo va materiallarni qabul qilishdan boshlab, texnologik jarayonlarda, tashish va saqlashda sifatni nazorati yo'lga qo'yish zarur. Aniqlangan nuqson va kamchiliklarni yo'qotishga ketgan xarajatlar tannarxning 0,17 – 0,2 % ini tashkil etmoqda.

Ko'rinib turibdiki, korxonada mahsulot sifatini boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilishi zarur bo'lib, bu o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan xolda “Axmad Toj Xaydar” xususiy korxonasida mahsulot sifatini boshqarishni takomillashtirish imkoniyatlarini topish va ularni amalga oshirish yo'lida quyidagilarni taklif etish mumkin:

- birinchi navbatda umumiy sifat konsepsiyasini qabul qilib, barcha xodimlarning lavozim yo'riqnomasiga sifat uchun javobgarlikni kiritish lozim. Bunda nafaqat xom-ashyo, butlovchi qism yoki mahsulot sifati, balki texnologik jarayonlar, mehnat sifati, qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari sifati kabi ko'plab jihatlar bo'yicha sifat standartlarini ishlab chiqish va mavjudlarini zamon talablariga mos ravishda yangilab borish zarur;

- ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, sifat standartlarini qayta ko'rib chiqish;

- sifatni nazorat qilishning statistik usullarini takomillashtirish bilan birga, norasmiy usullarini keng qo'llash. Bunda har bir ishchi-xodim qo'z faoliyati sifatini o'zi nazorat qilib, unga javobgar bo'lishi talab etiladi;

- sifatni ta'minlashga qaratilgan xatti-xarakatlarni qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi tizimni rivojlantirish. Korxonada «Sifat uchun rag'batlantirish» tamoyilini joriy qilish;

- korxonada nazorat funksiyasini kuchaytirish orqali mehnat intizomini mustahkamlash;

- nuqson va xatolar uchun jazolash mexanizmini kuchaytirish;

- iste'molchilar bilan teskari aloqa tizimini kuchaytirish;

- ta'minotchilar bilan sifatni ta'minlash bo'yicha xamkorlikni mustahkamlash.

Ushbu takliflarni «Axmad Toj Xaydar» xususiy korxonasida joriy qilish korxona faoliyatining samaradorligi oshiradi va katta iqtisodiy xamda ijtimoiy samara keltiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida» gi Qonuni. T., «Adolat», 2000.
2. I.A.Karimov, «Bosh maqsadimiz-mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohotlarni,iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir» «Xalq so'zi» № 13 16.01.2016й
3. I.Karimov «2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish –ustuvor vazifamizdir» Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar, № 14 (5987)
4. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari». – T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
5. И Ансофф. Новая корпоративная стратегия, учебное пособие, М.: - 2007
6. Abdukarimov B.A. va boshqalar, Korxona iqtisodiyoti. –T.: «Fan», 2005
7. Арская Л.П Японские секреты управления.-М.: «Универсум», 1999
8. Вудкок М, Фрэнсис Д. Раскрепощенный менеджер. М.: «Дело», 1990
- 9.Gimush R.I., Matmurodov F.M., Innovatsion menejment.-T.: UzFMJ, 2008
10. Zayniddinov Sh., Menejment asoslari.T.,2008 y
11. Курс МВА по стратегическому менеджменту /пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004, с 64
12. Кибанов А и другие. Управление персоналом организации. - М.: «Инфра- М», 1999
13. Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. – 89-90-b.
14. Майталь Ш. Экономика для менеджеров. Пер. с англ.- Москва: «Инфра-М», 1998
15. M. Nasretdinova, O.Axmedov, Biznes strategiyasi, o'quv qo'llanma, T.-

2006

16. Nurimbetov R.I., Axmedov S.I., Ishlab chiqarish menejmenti, -T.: «Talqin», 2008
17. Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M, Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya- iqtisodiy o'sishning muhim omillari. T. Navruz-2014
18. Поршнев А.Г. и другие. Управление организацией. Учебник 2-е издание, - М.: «Инфра-М», 1999
19. Sotvoldiev A.A., Tuxtaboev A.T., Teshaboeva Z.T., «Jarayonlar menejmenti», - T.: «Fan va texnologiya», 2005
20. Taraxtieva G., Innovatsion menejment, -T.; “Moliya”, 2013
21. Шонбергер И. Японские методы управления.- М.: «Экономика», 1988
22. Drucker, P. F. The Frontiers of Management. New York: Talley Books, 1999
23. Waterman, R.H. The Renewal Factor. New York: Free Press, 1987.
24. Halilov N.X., Sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari,-Monografiya, T.-Noshir,2014
25. “Iqtisodiyot va menejment” fanidan ma’ruzalar matni, AndMi, 2014
26. “Iqtisodiy tahlil” fanidan ma’ruzalar kursi, Toshkent Moliya instituti, 2014
27. « Axmad toj Xaydar » xususiy korxonasining 2013-2015 yillardagi reja va hisobot ma’lumotlari
28. **www.mamba.ru.** В. Глянцев, Повышение эффективности управления производством на современных предприятиях, 2008.
29. **www.cer.uz** . Стратегии бизнеса, 2007
30. **www.ilm.uz** Махмудов А., Махсулот рақобатбардошлигини бошқариш
31. **www.ziyonet.uz**